

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____S.Abdullayev

“ ___ ” _____2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishi IV kurs 401-guruh
talabasi Yaxshiboyev Javlonning “**Shokirjon Rahimiy va uning tilshunoslik merosi**”
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.n., T.Tog‘ayev

O‘zbek adabiyotitarixivamatnshunoslik kafedrası

dotsenti

Taqrizchi:

_____ f.f.n.,Sh.Sodiqova

ToshDSHI turkiy tillar

kafedrası katta o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi

kafedrası mudiri

_____f.f.d.M.Qurbonova

“ ___ ” _____2018-y

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

KIRISH	2
I BOB. SHOKIRJON RAHIMIYNING HAYOTI VA ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI	
1.1. Shokirjon Rahimiy – pedagog, ona tili o‘qituvchisi	8
1.2. Shokirjon Rahimiyning ilmiy merosi	13
II BOB. SHOKIRJON RAHIMIY VA O‘ZBEK ALIFBO-IMLOSI MUAMMOLARI	
2.1. Shokirjon Rahimiyning alifbo darsliklari mazmuni	19
2.2. Shokirjon Rahimiyning yozuv islohotida ishtiroki.....	25
III BOB. SHOKIRJON RAHIMIYNING ONA TILI DARSLIKLARI VA ILMIY MAQOLALARIDA O‘ZBEK TILI GRAMMATIKASINING ISHLANISHI	
3.1. Fonetik qarashlari.....	41
3.2. Leksik qarashlari	52
3.3. Morfologik qarashlari	56
3.4. Sintaktik qarashlari	60
XULOSA	62
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	65

KIRISH

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xalqimizning o‘tmish tarixi boy madaniy merosini o‘rganish, uni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga hukumatimiz tomonidan alohida e‘tibor berildi. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o‘ining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli asarida “O‘likni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘likni anglash mumkin emas... Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g‘oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim”¹ deb ta’kidlagani bejiz emas. Mustamlaka davrida marifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan. Jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Isxoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir va Shokirjon Rahimiy kabi yuzlab marifatparvar, fidoyi insonlarning sha xsiy manfaati, xuzur halovatidan kechib, el ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi.

Ma’rifatparvar, millatparvar, tilshunos, pedagog olim Shokirjon Rahimiy ham o‘z davrining yuqorida tilga olingan buyuk zotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatdi.

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlool tufayli milliy o‘zik, milliy iftixor, milliy ma’naviyat, milliy an’analarimiz o‘zining asl ma’nosiga, qadriga ega bo‘ldi. Tilimizni har tomonlama taraqqiy ettirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘tgan asrning 20-yillaridagi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va ishlanishi muammolarini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Oktyabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki davrlarda Fitrat, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Elbek, G‘ozi Olim Yunusov va boshqa tilshunos olimlar o‘zbek tilshunosligining rivojiga katta hissa qo‘shganlar².

¹ Karimov.I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”.T.: 1999-yil. 138-bet.

² Мамудов Н. О‘збек тилшунослиги тарайиёти. О‘збек тили ва адабиёти// 2001. - №4. -Б.7

Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo‘li ma’rifat deb bildilar. Buning uchun yangi tipdagi maktablar ochish, dunyo yangiliklarini xalq o‘rtasida targ‘ib qilish matbuotning rivojlantirishga intildilar. Ularning ko‘plari yangi maktablar uchun darsliklar ham yozdilar. Shokirjon Rahimiyning “Sovg‘a”, “Kattalarga yo‘ldosh” singari asarlari ana shunday asarlardandir. Shokirjon Rahimiy va uning tilshunoslik merosini tadqiq etish dolzarb masalalardan sanaladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. M.Qurbonova³, B.To‘ychiboev⁴, M.Yo‘ldoshev⁵, Sh.Bobomurodova⁶, Yo.Sayidov⁷, T.Tog‘ayevlar⁸ning ilmiy izlanishlari bu davr tilshunosligini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqotlarda Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy kabi olimlarning lingvistik merosi, Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va boshqa adiblar asarlarining til xususiyatlari tadqiq etilgan. Qayd etilgan ishlarda 20-yillar o‘zbek tilshunosligi muammolari o‘rganilar ekan, ayni paytda o‘zbek adabiy tilining o‘sha davr rivojlanish bosqichi – shakllanishi va me'yorlashuvi to‘g‘risida ham muayyan fikrlar, ilmiy qarashlar bayon qilingan.

Biz ushbu tadqiqotimizda Shokirjon Rahimiy va uning tilshunoslik merosini o‘rganishga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Sh.Rahimiyning lingvistik merosini imkon qadar o‘rganib, uning o‘zbek ilm-madaniyati, xususan, o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rnini oydinlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadda quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zga tutilgan:

- Sh.Rahimiyning tilshunoslik merosini to‘plash va tadqiq qilish;

³ M.Курбонова. Фитратнинг тилшунослик меъроси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т., 1993.

⁴ Тўйчибоев Б. Фитрат ва ҳозирги ўзбек адабий тили//Фитрат анжуманининг материаллари. Бухоро-1992; Тўйчибоев Б. Фитрат - тилшунос. - Т., 1995.

⁵ М.Йўлдошев. Чўлпоннинг бадиий тил маъорати («Кеча ва кундуз» романи мисолида): Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Т., 2000.

⁶ Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожда Элбекнинг роли. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, 2002.

⁷ Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2001.

⁸ Тоғаев Т. Ашуралӣ Зоҳирӣй ва унинг тилшунослик мероси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2005.

- olimning til-imlo sohasidagi tadqiqotlarini o‘rganish va ilmiy ahamiyatini belgilash;
- Sh.Rahimiyning o‘zbek tili bo‘yicha “Alifbo”, “Kattalarga yo‘ldosh” va boshqa darsliklarini tahlil qilish;
- Sh.Rahimiyning ilmiy faoliyatini tadqiq qilish, uning o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatish;
- olimning alifbo-imlo islohot va o‘zgarishlari jarayonida ishtirokini o‘rganish va unga baho berish.

BMIning ilmiy yangiligi. Sh.Rahimiyning tilshunoslik merosini ilk bor maxsus o‘rganish bo‘yicha bajarilgan ishlar tadqiqotning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning obekti va predmeti. Sh.Rahimiyning ilmiy-pedagogik faoliyati, tilshunoslik merosi ishning ob'ektini tashkil qiladi. Olimning lingvistik qarashlarini o‘rganish ishning predmeti hisoblanadi.

BMIning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ish 20-30yillar o‘zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini, shuningdek, o‘zbek tilshunosligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Undan «O‘zbek tilshunosligi tarixi», «Hozirgi zamon o‘zbek tili» kurslarini o‘qitishda, dars ishlanmalarini yaratishda amaliy material sifatida unumli foydalanish mumkin.

BMIning manbai. Tadqiqot ishi uchun 20-30-yillarda mavzuga doir e‘lon qilingan lingvistik maqolalar, ilmiy anjumanlardagi ma‘ruzalar, darslik va qo‘llanmalar, lug‘at kitoblari, tilshunos olimlarning tadqiqotlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Ishning nazariy asosi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlarining milliy istiqlol mafkurasi, adabiy-madaniy, ilmiy meros hamda tarixni o‘rganishga oid asarlari ishning nazariy asosini tashkil etadi. Shuningdek, BMIda qo‘yilgan masalalarni yoritishda hozirgi o‘zbek tilshunosligi erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar, yangicha qarashlarga, ilmiy fikr va xulosalariga tayandik.

Tadqiqotning metodologik asoslarini tarixiylik, izchillik, xolisona baho berish tashkil qiladi. Tadqiqotda qiyoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

BMIning tuzilishi. Ish kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Umumiy hajmi – 75 bet.

I BOB. SHOKIRJON RAHIMIYNING HAYOTI VA ILMIY- PEDAGOGIK FAOLIYATI

1.1. Shokirjon Rahimiy – pedagog, ona tili o‘qituvchisi

Oktyabr to‘ntarishidan keyin eski milliy ziyolilarni hamda voyaga yetib kelayotgan yangi avlod vakillarini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga jalb etishga majbur qilish avj oldi. Sovet hokimiyati birinchi navbatda maorif va maktab ta‘limini qo‘lga olishga katta e‘tibor berdi. Bu borada “Turkistonda dastlabki yillarida bir qancha jiddiy tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, xalq ta‘limining an‘anaviy usullarini qisqartirish va eski ta‘lim tizimini yo‘qotish uchun quyidaga vazifalarni bajarish qattiq talab qilindi:

– Sodda, hammaga tushunarli bo‘lgan arab grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosini isloh qilish, arab grafikasidagi ba‘zi bir harflarni qishloq va shahar shevalariga moslab soddalashtirish. Bu yangi ta‘lim tizimiga xos uslubiyotning asosini tashkil etar edi.

– O‘quvchilarga bilim berish uchun yangi talablarga mos keladigan darslik va qo‘llanmalar yaratish, kattalar uchun ham alifbo qo‘llanmasi tuzish.

– Maktab yoshidagilar va kattalar uchun yangi uslubiy qo‘llanmalar va ko‘rgazmali vositalar ishlab chiqish.

– Qisqa muddatda malakali muallimlar tayyorlash.

– Yangi tipdagi maktablar qurish.”⁹ Juda ko‘plab ziyolilar qatori taniqli ma‘rifatparvar Shokirjon Rahimiy ham mazkur ishlarga jalb qilindi.

Shokirjon Rahimiy o‘ining qizg‘in ijtimoiy-siyosiy faoliyati, salmoqli ilmiy-ijodiy merosi bilan xalqimizning istiqloli yo‘lidagi kurashi, yuksak madaniyatli tarixida yorqin iz qoldirgan siymolardan biridir. U o‘z davrining ilg‘or hodisasi sanalgan jadid ijtimoiy harakatchiligining yetakchilaridan edi.

Shokirjon Rahimiyning tariximizda tutgan o‘rni, ilmiy merosi hali yaxshi o‘rganilmagan. Uning nomi mutaxassislarga bir qadar tanish bo‘lsa-da, keng o‘quvchilar ommasi yaqindan bilmaydi. Zotan, bu zot o‘z zamonida Behbudiy,

⁹ Nargiza Sobirova. Ma‘rifat qaldirg‘ochlaridan biri, “Jahon adabiyoti” jurnali, 2008 yil, 11-son

Munavvar Qori, Fitrat, Zohiriy, Qodiriy, Cho‘lpon singari ma’rifatparvarlar millat taraqqiyotida ko‘p xizmat qilgan.

Uyg‘onish davri ma’rifatparvar ziyolilari hayot taqozosi bilan ijtimoiy-ma’naviy hayotning turli sohalarda ish olib borganlar. Ular ayni paytda pedagog-olim, yozuvchi-shoir, jurnalist-noshir sifatida va yana boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatishgan. Shokirjon Rahimiy ham bundan mustasno emas. Olim ilmiy-ma’rifiy, pedagogik, adabiy-publitsistik faoliyati bilan o‘zbek xalqi, madaniyati tarixida munosib o‘rin tutadi.

XX asrning birinchi yarmida Toshkentda Sobirjon, Shokirjon va G‘afurjon Rahimiylar sulolasi faoliyat ko‘rsatgan. “Shokirjon Rahimiy (1898–1938.5.10) – ma’rifatparvar, taraqqiyparvar pedagog, otasi qo‘lida xat-savodini chiqargach, madrasada, usuli jadid maktabi va kechki rus-tuzem maktabida o‘qigan (1903–09).”¹⁰ Sulolaning kattasi Sobirjon Rahimiy bo‘lib, u tashkil etgan “Usuli jadid” maktabi shahardagi eng ilg‘or va namunali maktablardan biri sanalgan. Biroq, shu vaqtda birorta ham o‘qituvchi tayyorlaydigan na birorta oliy va na o‘rta maxsus bilim yurti bor edi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy va “Rahimiya” maktabidan yetishib chiqqan hamda o‘qituvchilikka ko‘ngil qo‘ygan Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Shokirjon Rahimiy, Ismatulla Rahmatullayev kabilar ketma-ket yangi ochilayotgan “Usuli jadid” maktablarida ustozlari rahbarligida faoliyat yurita boshlaydi. Rahimiylar sulolasining ikkinchi bo‘g‘iniga mansub Shokirjon ham xat-savodini chiqargach, madrasada, usuli jadid maktabi va kechki rus-tuzem maktabida o‘qib, 1909–1919-yillarda “Rahimiya” maktabida o‘qituvchilik qiladi. O‘qish va yozishni o‘rgatar ekan, Rahimiy maktabdagi ta’lim jarayoni mohiyati haqida shunday yozadi: “Maktab bolalarni faqatgina o‘qitib qolmay, ularning ma’naviy dunyosini va jismoniy quvvatini rivojlantirishi, dunyoqarashini milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar ruhida shakllantirishi, o‘z Vatanini yurakdan sevgan faol fuqarolarni tarbiyalab yetishtirishi zarur”¹¹. O‘quvchilar ongida milliy

¹⁰ “Toshkent” ensiklopediyasi. Shokirjon Rahimiy. 2009-yil

¹¹ Rahimiy Shokirjon. Til va imlomiz // Ishtirokiyun. – 1920-yil, 30 noyabr.

dunyoqarashni shakllantirish uning asosiy gʻoyasi edi. Olimning hayotiy va ilmiy faoliyati mazmunini “Turkiston shoʻrolar jumhuriyatidagi maorifparvar yoshlarga xitob” dasturida ochiq koʻrish mumkin. Z.Bashir Shokirjon Rahimiyning savodsizlikni bitirish maktablari uchun tuzilgan “Kattalarga yoʻldosh” (1924-yil) nomli alifbo kitobini atroflicha tahlil qilar ekan, “Yaqinda boʻlgʻan savodsizliqni bitirish qurultoyida koʻrilgan ahvolga qaragʻanda, savodsizliqni bitirishga ayni katta toʻsiq boʻlgʻan masalalarning biri yozishga tayyorlangan oʻqituvchilarning ozligʻI boʻlsa, ikkinchisi kattalarni oʻqitish uchun tuzilgan darsliklarning yoʻqligʻidir. 2-3 yillik tajriba ochiq koʻrsatdikim, Turkiston oʻlkasida sarf qilingʻan juda koʻb kuchlar bu kungacha koʻb qanoatlanurlik natija bera olmadilar. Savodsizliqni bitirish uchun ishchi-dehqon uyushmalari orasida ochilgʻan juda koʻb maktablar va kurslar 9-10 oy va hatto bir yildan ortiq davom qilgʻanlari holda tuzukkina savodliq odamlarni chiqara olmadilar. Buning asosiy sabablari yuqorida koʻrsatildi. Yaxshigʻina tajribalik va isteʻdodliq oʻqitgʻuvchilar ham oʻlarining quruq kuch sarf qilishlari bilangina ortiq natija koʻrsata olmadilar.

Keyingi vaqtda Turkiston savodsizliqni bitirish markaz komissiyasi tomonidan nashr qilingʻan “Kattalar yoʻldoshi” nomliq asar shul ehtiyojimizni toʻldirishi uchun buyuk bir yordamdir.”¹² – deya taʻkidlab oʻtadi. Bundan koʻrinadiki, Shokirjon Rahimiyning oʻqituvchilik va olimlik faoliyati eʻtirofga sazovor jihatlari bilan ajralib turgan.

U oʻz tadqiqotlari davomida arab alifbosini hozirgi zamonga moslab soddalashtirish, shunga muvofiq harflarning yozilishini ham osonlashtirish, oʻzbek adabiy tilini qishloq va shahar shevalariga moslashtirish lozim degan talabni ilgari surdi. 1912-yildan boshlab esa oʻzi faoliyat yuritgan maktablar, xususan, usuli jadid maktablari va turli oʻquv yurtlari uchun oʻquv qoʻllanmalarini nashr eta boshlaydi. Abdulla Avloniy va uni qoʻllab-quvvatlagan bir guruh maʻrifatparvarlarning tashabbusi bilan 1913-yilga kelib “Turon” nomli teatr toʻgaragi tashkil topadi. Bu toʻgarak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil

¹² Bashir Z. Kattalarga yoʻldosh: (Shokirjon Rahimiyning savodsizlikni bitirish maktablari uchun tuzilgan «Kattalar yoʻldoshi» nomli alifbo kitobi toʻgʻrisida) // Turkiston. – 1924. 23-iyul.

etilgan truppa bilan qo‘shilib (avvalgi Hamza nomidagi drama teatri), hozirgi Milliy davlat akademik teatriga asos bo‘ladi. Avloniy to‘garigidan keyinchalik mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari bo‘lib tanilgan Nizomiddin Xo‘jayev, G‘ulom Zafariy, Shamsiddin Sharofiddinov (Xurshid), Mannon Uyg‘ur singari ulug‘ shaxslar yetishib chiqadi. Ular jadid yozuvchilar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza, Abdulla Qodiriy asarlarini sahnalashtirar va asosiy rollarni o‘lari o‘ynar edilar. Shokirjon Rahimiy ham “Turon” teatri faoliyatida qatnashish bilan birga Xalq universiteti (1918), “Ishtirokiyun” gazetasi (1919) tashkil etilishida tashabbuskorlardan bo‘lgan. 1919-yilda Fitrat boshliq bir guruh ma’rifatparvarlarning tashabbuskorligi bilan tashkil etilgan “dastlabki adabiy uyushma”¹³ – “Chig‘atoy” gurungining faoliyati 1922-yilga kelib siyosiy kuchlar tomonidan tugatilgach shu yilning so‘nggi kunlarida “Nashri maorif” nomli yangi jamiyatni tashkil etishga qaror qiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan tashkil etilgan bu jamiyatning bir guruh yosh ta’rischilari orasida Shokirjon Rahimiy ham bor edi. Jamiyatning Toshkent shahridagi bo‘limini esa Shokirjon Rahimiy o‘i rais sifatida boshqaradi va Boku hamda Germaniyaga iqtidorli yoshlarni o‘qishga jo‘natish tashabbuskorlaridan biri bo‘ladi. Shu faoliyati davomida uning Eski maktablarni va “Is’hoqiya” kutubxonasini ta’mirlashda ko‘rsatgan xizmati katta.

Shokirjon Rahimiyning mehnat daftarchasini varaqlagan kishi uning 1914-1915-yillarda “Sadoyi Turkiston” gazetasida adabiy xodim, 1918-1924-yillar oralig‘ida esa Eski shahar va Toshkent viloyat xalq maorif bo‘limlarida mudir, shu bilan birgalikda, 1918-1922-yillarda birinchi bosqich maktablari, ta’lim va tarbiya bilim yurtlarida o‘qituvchi va mudir lavozimlarida faoliyat yuritganligiga, Toshkentda birinchi bo‘lib, bevosita uning tashabbusi bilan ochilgan Ayollar Pedagogika bilim yurtida 1922-yilda, Xalq ta’limi Respublika qo‘mitasining yo‘llanmasiga muvofiq, Toshkentdagi ishchilar fakultetida direktor lavozimida ham ishlaganligiga, (Bu o‘quv dargohi juda ko‘p yoshlarning oliy va malakali ta’lim olishiga yordam bergani ma’lum) 1924-yilga kelib esa Moskvada o‘zbek

¹³ Yozuvchilar uyushmasining poydevori qachon qo‘yilgan edi?// Naim Karimov

yoshlari uchun tashkil etilgan Buxoro maorif uyi va ishchilar fakultetida mudir bo'lib faoliyat yuritganligiga guvoh bo'ladi. 1930-yilda Xalq ta'limi komissariyatining yo'llanmasi bilan Moskvaga xizmatga jo'natiladi. U yerda maorif va teatr guruhining rahbari bo'lib tayinlanadi. Bu guruhda taniqli o'zbek artistlari va madaniyat arboblari Abror Hidoyatov, Mannon Uyg'ur, Sora Eshonto'rayeva va boshqa san'at namoyandalari ta'lim olganlar. Shuningdek, u Moskvadagi Buxoro Maorif uyida "O'zbekiston" nashriyotining bo'lim boshlig'i va muharriri lavozimida ham ishladi va 1928-yilda nashriyot qoshidagi bilim yurtiga rahbarlik qiladi. 1924–1930-yillarda shu maskanda tahsil olgan o'zbek teatrining bo'lajak qaldirg'ochlari uning mohir pedagog va ajoyib inson sifatidagi fazilatlarini uzoq yillar eslab yurishgan. 1930-1931-yillarda, Shokirjon Rahimiy Moskvadagi vaqtida, Munavvar Qori boshchiligidagi bir guruh jadidlar "milliy ittihadchilar" nomi ostida qamoqqa olinadi. Rahimiy, bo'lib o'tgan suddan keyin Toshkentga qaytib, maorif tizimidagi muassasalarda ishlay boshlaydi. Biroq, yurtga qaytgandan keyin Toshkentda ham uning ustidan tergov boshlanadi va 1938-yil avgust oyida Davlat xavfsizligi qo'mitasi tomonidan qo'lga olinadi. 1938-yil 5-oktyabrda SSSR Oliy Sudining 58 (davlat to'ntarishi), 64 (terroristik akt), 67 (kontrevolyutsion tashkilotda qatnashgani uchun) moddalariga asosan, jinoiy javobgarlikka tortiladi va "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olinib, ko'p o'tmay, shu yilning kuzida otib tashlanadi. Taniqli iqtisodchi Hikmat Sobirov o'sha kuni shunday xotirlaydi: "Yanglishmasam, 14 yoshimda 1937-yil 18-iyulda amakimni Taxtapuldagi uyimizdan olib ketishdi. Yana uyimizdagi kitoblar va qog'ozlarni ham musodara qilishdi. Dadamning safdoshlari, hamfikrlari Abdulla Qodiriy, Elbek, Fitrat, Cho'lpon, G'ozil Yunuslarning hammasi bir kunda hibsga olingan. Shokirjon Rahimiy va uning maslakdoshlariga nisbatan faqat tuhmatdan iborat soxta ayblar qo'yilgan. O'zbek milliy maktabshunosligining asoschilaridan biri, juda ko'p darsik, qo'llanmalar muallifi, fidoyi maorifchi Shokirjon Rahimiy nohaq tuzum qurboni bo'ldi". Keyinchalik siyosiy tuzumning yaxshilanishi, hukm qayta ko'rib chiqilishi tufayli Shokirjon Rahimiy nomi oqlanadi va Toshkentdagi ko'chalardan biriga Rahimiy nomi beriladi.

1.2. SHOKIRJON RAHIMIYNING ILMIY MEROSI

Bu davrda Turkiston ziyolilari o'rtasida til-imlo masalasida turlicha qarashlar, bahslar bois maktablarda ona tili va adabiyot ta'limi yomon ahvolda edi. Maktab darsliklari - alifbo va o'qish kitoblari yetishmas, borlari ham zamon talabiga javob bermas edi. O'zbek tilining qonun-qoidalari yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar yaratilmagan, o'zbek tili grammatikasiga oid darsliklar esa umuman yo'q edi. Shu sababli bu davr matbuotida maorif sohasidagi bu kabi kamchiliklar ko'p marta tanqid qilingan. Bu haqda adabiyotshunos olim Abdurahmon Sa'diy tomonidan ham shunday fikr bildirilgan: "O'zbeklar o'rtasidan o'zbek tilining qisqacha bir sarf-nahvini yoza olurliq bir ilmiy kuch, bir pedagug hamon yuzaga chiqmasdan turadimi?"¹⁴ – deydi va bu davrda o'rta maktablar uchun hanuz bir adabiyot majmuasi (xrestomatiya) yaratilmaganligini ham taassuf bilan yozib o'tadi. O'zbekiston ana shunday og'ir ahvolni boshidan kechirayotgan bir davrda kimdir nimadir qilishi zarur edi. Mana shunday ma'suliyatli vazifani yelkalab maydonga jadid vakillaridan iborat bir guruh yosh va navqiron olimlar kirib keladi. Ular qatorida Shokirjon Rahimiy ham o' o'rniga ega bo'lib ulgurgan yosh izlanuvchan sifatida faoliyat yuritib boshlaydi.

Bu davrning ko'zga ko'ringan tilshunoslaridan biri Qayum Ramazon ham maktablar uchun o'zbekcha darsliklar qoniqarsiz ahvolda ekanligi, xususan, til saboqliklari haligacha yaratilmaganligini, bu hol maorif ishlarining boshida turgan Respublika o'zbek bilim kengashining kamchiligi ekanligini tanqid qiladi. Bu orada Fitrat, Shokirjon Rahimiylarning maktablar uchun darsliklar yozishayotgani haqida gap-so'zlar tarqaladi.¹⁵

1919-1936-yillar oralig'ida Shokirjon Rahimiy ko'plab darsliklar yaratadi, boshlang'ich maktablarning barcha sinflari uchun til-imloga qo'llanmalar tuzadi. 20-yillarning o'rtalariga kelib, maktablarning 1- va 2-bosqichlari uchun bir qator

¹⁴ Sa'diy. Olti yillik o'zbek qizil matbuoti davrida maktab adabiyotlari//o'sha manba, o'sha joy.

¹⁵ Qayum Ramazon. Maktablarimiz va o'zbekcha darslik. // Turkiston gaz. 1923. -№210.

boshqa darsliklar ham e'lon qilinadi. Ularning ko'pchiligi ruscha darsliklardan so'zma-so'z qilingan tarjimalar edi. Avloniy, Fitrat, Elbek, Shokirjon Rahimiy va boshqa yetuk milliy ziyolilar bu harakatning salbiy jihatlarini tez tushundilar va yangidan yoziladigan darsliklar milliy ruhda bo'lishi hamda xalqning milliy ongini, madaniyatini yuksaltirishga, milliy tilni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak degan fikrni ilgari surdilar. Mohir pedagog, 1926-yilda "O'zbek ishchi-dehqonlarining kalendari" taqvimini ham tuzdi. U yangicha ta'limiy asarlar yaratish jarayonida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surishga, milliy tilni yuksaltirishga, milliy madaniyat va dunyoqarashni, qadimiy an'analarni saqlashga har doim katta ahamiyat bergan edi. Bunday kitoblarning soni esa o'ntadan ortiq. Bolaning milliy ongini uyg'otish va uni milliy an'analar ruhida tarbiyalashni birinchi sinfdan boshlab amalga oshirish zarur deb hisoblagan Shokirjon Rahimiy "Sovg'a"lar takomil qiladir" maqolasida ("Alanga" jurnali, 1927 yil, 6-son) shunday yozadi: "Bolalarning ongiga milliy ruh alifbo orqali singdirilishi kerak". O'sha davr bolalarining tayyorgarligi va tasavvurlarini hisobga olgan holda u qishloq va shahar bolalariga alohida-alohida "Sovg'a" (1919), "Alifbo darsligi" (1922) kabi alifbo darsliklarini yaratdi. Shuningdek, kattalarning savodxonligini oshirishga qaratilgan "Kattalarga o'qish" (1920), Savodsiz katta kishilar uchun 1924-yilda "markaz savodsizlikni bitiruv favqulodda komissiyasi" tomonidan 15 ming dona bosilgan "Kattalar yo'ldoshi" nomli alifbosini tuzadi. "Kattalar yo'ldoshi" ikki yil ichida tuzatilib, to'rt daf'a nashrdan chiqadi. Bundan tashqari "Kattalar alifbosi" (1927), "Savod" (1930), "O'zbek tili. Ish kitobi" (1932) "O'zbek tili darsligi. Grammatika ham imla" (1934) "O'zbek maorifi" (1923) kabi maxsus darsliklar va o'quv qo'llanmalar ham yaratadi. "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1928-yil 28-avgust sonidagi yangi asarlar nomli sahifasida Rahimiyning "Jonli tovushlar" nomli yana bir yangi alifbo kitobi nashrdan chiqqanligi haqida e'lon qilinadi. Unga ko'ra Shokirjon Rahimiy muallifligida nashrga tayyorlangan bu mo'jaz kitobcha bolalar uchun mo'ljallangan kichik hajmli kitobcha ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Ammo bu kitobchanning bugungacha yetib kelganligi yoki yetib kelmaganligi haqida hech qayerda

ma'lumot uchramaydi. Bu kitoblar esa imlodan imloga o'tish yillarida keng xalq ommasiga beminnat xizmat qildi.

Shokirjon Rahimiy o'z davrining taniqli tilshunos olimi sifatida Til-imlo qurultoyi (Toshkent, 1921), o'zbek madaniyat va maorif xodimlarining o'lka qurultoyi (Toshkent, 1922), Turkiyot qurultoyi (Boku, 1926), lotin alifbosini qabul etishga bag'ishlangan O'rta Osiyo ilmiy anjumani (Samarqand, 1927), Til-imlo kanferensiyasi (1929-yil) da faol ishtirok etgan.

Shu o'rinda Rahimiyning ilmiy faoliyatidagi ba'zi jihatlariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Ba'zi tadqiqotlarda Rahimiyning faoliyati bo'yicha ma'lumotlarda chalkashliklar ham uchraydi. Jumladan, ba'zi ma'lumotlarda Shokirjon Rahimiy 1918-yili (1919-yil deb ham keltiriladi) Turkiston Kompartiyasining topshirig'iga ko'ra, Fitrat va Qayum Ramazon bilan birgalikda dastlabki ona tili darsligini yaratgani haqida gap borsa,¹⁶ keyingi tadqiqotlar uning darslik emas, ona tili fani o'qituvchilarini tayyorlovchi kurs ekanligini isbotlaydi. "1919-yilda faqatgina "Chig'atoy gurungi" a'zolarining, hammadan burun, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy va Fitratning "Bitim yo'llari" nomli o'qituvchilarga mo'ljallangan yangi alifbo va imlo bitikchasi o'sha paytdagi Maorif nozirligi ruxsati bilan nashr ettirilgan."¹⁷ Shuningdek, tadqiqotda bu darslik haqidagi gap-so'zlarning noto'g'ri ma'lumot ekanligini isbotlovchi e'lon ham keltiriladi. Shokirjon Rahimiy "O'zbek tili. Ish kitobi" darsligining "Bir-ikki so'z" bo'limida darslik haqida va ayni alifbodagi o'garishlar haqida so'z yuritar ekan, "Til-imla kanferensiyasining qararlari tegishlik idaralar tomonidan hali ishlanib-basdirilib tarqatilmag'an va buning ustiga hali "shakli sarf" bizda yaxshi o'rinlashmag'andir. Mana shunday faktorlar bo'lg'an chog'da bizning birdan-bir amalga qo'yib turg'an ishimiz ham kamchiliksiz bo'lmaslig'i tabiiydir."¹⁸ deya yaratilayotgan darsliklarning yana o'zgarishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Kitobning 1929-yil

¹⁶ Qarang: "Ishtirokiyun" ro'znomasining 1918-yilning 11-may soni

¹⁷ Kitob emas, o'quv kursi ekan//O'zbek adabiyoti va san'ati.2003.18.04

¹⁸ Shokirjon Rahimiy O'zbek tili ish kitobi II. O'zinasr Toshkent –1930

nashrdan chiqqan ikkinchi nusxasiga o'xshashi, lekin birinchi nashrdagi ma'lumotlar qayta tuzatilib berilayotgani haqida yozar ekan, Shokirjon Rahimiy, yangi nashrda til qoidalarini o'lashtirishni o'quv yili dasturiga taqsimlab tuzgani haqida so'z yurutib o'tadi va darslikni tuzish jarayonida rus tilshunoslari: Ushekov, Sheposhnikov kabilarning darsliklaridan foydalanganligi, bu jarayonda turk millatlarining tilida bosilgan asarlaridan ham foydalanganligini ma'lumot sifatida keltirib o'tadi.

Shokirjon Rahimiy hamda uning tilshunoslik merosini o'rganish va u yaratgan kitoblarni qidirish jarayonida bugungi kunda Germaniyaning mashhur kutubxonalaridan birida saqlanayotgan V. Breluf tomonidan tuzilgan "Shokirjon Rahimiyning "Kattalarga o'qish darsligi" uchun: o'zbekcha-ruscha lug'at" nomli 36 sahifadan iborat bo'lgan kitobning elektron nusxasini topishga musharraf bo'ldik. Bu lug'at kitob 1925-yilda Moskvada 3000 nusxada nashr etilgan. Kitobning "Muallifdan" deb nomlangan kirish qismida lug'at haqida muallifning o'zi shunday deydi: "Yangi imlo bo'yicha yozilgan biron bir o'zbekcha-ruscha lug'atning yo'qligi Yevropaliklar tomonidan o'zbek tilini o'rganishni nihoyatda qiyinlashtiradi. Maorif Xalq Komissarligi maktablarida va turli muassasalarning ko'p sonli kurslarida Shokirjon Rahimiyning "Kattalarga yo'ldosh" nomli o'zbek tili darsligi qabul qilindi. Yevropaliklar tomonidan nomi tilga olingan darslik bo'yicha o'zbek tilini o'rganishni yengillatish maqsadida men ushbu lug'atni tuzishni zimmamga olishga jazm qildim.

So'zlarni qidirish uchun ketadigan vaqtni tejash maqsadida men tomonimdan alfavit usuli emas, matn mavzusi asosida so'zlarni joylashtirish qabul qilindi. Oldingi paragrifdagi matnlarda mavjud so'zlarning keyingi paragrifda qo'llanganligini yodda saqlash qiyin, shuning uchun lug'atga alifbo tartibida havolalar qoldiriladi.

Shuni aytishni joiz deb bilamanki, kitobda mavjud bo'lgan orfografiya to'g'ri va aniqligi bilan darslik va lug'atlardagi so'z va gaplarning shakli bilan bir xil. Faqat sharxlar yoki izohlar turlicha bo'lishi mumkin. Agar lug'atga bitta izohni

kiritsak, va ushbu izoh eng oxirgi qonun-qoidalarga muvofiq bo'lsa, shu aniq bo'ladiki, lug'atdagi bitta so'z asosiy faqat izohlar turlicha bo'lishi mumkin."

Bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, uyg'onish davri ma'rifatparvar ziyolilari hayot taqozosi bilan ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli sohalarida ish olib borganlar. Ular ayni paytda pedagog-olim, yozuvchi-shoir, jurnalist-noshir sifatida va yana boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatishgan. Xuddi shu qatorda Shokirjon Rahimiy ham ilmiy-ma'rifiy, pedagogik, adabiy-publitsistik faoliyati bilan o'zbek xalqi, madaniyati tarixida o'zining munosib o'rnini qolirdi.

U o'z tadqiqotlari davomida arab alifbosini hozirgi zamonga moslab soddalashtirish, shunga muvofiq harflarning yozilishini ham osonlashtirish, o'zbek adabiy tilini qishloq va shahar shevalariga moslashtirish lozim degan talabni ilgari surib, milliy til va imlo masalalariga ma'suliyat bilan yondashadi.

1912-yildan boshlab esa o'zi faoliyat yuritgan maktablar, xususan, usuli jadid maktablari va turli o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanmalarini nashr etib savodsizlikka chek qo'yish uchun dastlabki qadamni tashladi.

1919-1936-yillar oralig'ida ko'plab darsliklar yaratdi, boshlang'ich maktablarning barcha sinflari uchun til-imloga qo'llanmalar tuzdi. 20-yillarning o'rtalariga kelib esa maktablarning 1-2-bosqichlari uchun bir qator boshqa darsliklar ham ishlab chiqib, milliy grammatikamizning dastlabki ko'rinishlarini yaratadi.

V. Breluf tomonidan "Shokirjon Rahimiyning "Kattalarga o'qish darsligi" uchun: o'zbekcha-ruscha lug'at" nomli 36 sahifadan iborat lug'atning tuzilganligi, o'z davrining, nafaqat O'zbekistonlik o'quvchi-yoshlari uchun, balki xorijlik o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lganlar uchun ham katta yangilik bo'ldi. Lug'atning 3000 nusxada nashrdan chiqishi ham uning naqadar kerakli va ayni paytda zarur til o'rgatuvchi kitob ekanligini ko'rsatadi.

Millat va milliy til tushunchalarini bu qadar chuqur his etgan holda olib borgan ilmiy izlanishlari hali 30 yoshga ham kirmagan o'zbek yigitini o'z davridayoq Shokirjon Rahimiy qilib tanitdi.

II BOB. SHOKIRJON RAHIMIY VA O‘ZBEK ALIFBO-IMLOSI MUAMMOLARI

2.1. Shokirjon Rahimiyning alifbo darsliklari mazmuni

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi vaziyat ziyolilar o‘rtasida milliy o‘z-o‘zini anglash hissini kuchaytirib yubordi. XVI asrdan boshlangan madaniy, ma’naviy inqiroz tufayli unutilar darajaga kelib qolgan boy milliy merosimizni tiklash, o‘tmish, madaniyatga mehr-muhabbat hissini uyg‘otish harakati boshlandi va bu harakatning natijasi sifatida jadidizm maydonga keldi. Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo‘l ma’rifat deb bildilar. Buning uchun yangi tipdagi maktablar ochish, dunyo yangiliklarini xalq o‘rtasida targ‘ib qilish matbuotning rivojlantirishga intildilar. Matbuotning yo‘lga qo‘yilishi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, jadidlar til masalasiga alohida e’tibor bilan qaratdilar. Jadidlarning til masalasiga alohida e’tibor berishlari bejiz emas edi. Chunki til millatning eng asosiy belgilaridan biridir. Shuning uchun ham: “Savod chiqarishning kaliti alifbodadir”, deb hisoblagan Rahimiy milliy pedagogika tarixiga hissa bo‘lib qo‘shilgan ilk kitobini – “Sovg‘a” deb nomladi. Va o‘zbek tili uchun kichik bir “Sovg‘a”sini taqdim etdi. “1919nchi yilda Turkiston jumhuriyatining maorif komissarligi xarji bilan bosilg‘on bu rasmlil alifbo har bir daf‘a bosilishida tuzatilib, bu kunlarda 5nchi qatla bosilib chiqdi.”¹⁹ Va o‘zbek milliy pedagogika tarixiga hissa bo‘lib qo‘shilgan Shokirjon Rahimiyning ilk kitobi bo‘ldi.

Shokirjon Rahimiyning Tohiriyga javob xati tarzida yozgan “Men nima deyman qubizim nima der” maqolasida ““Sovg‘a” 87 bet”²⁰ ekanligi haqida ma’lumot keltiradi. Biroq, hozirgacha “Sovg‘a” ning asl nashridan biror nusxa topolmadik. Ammo “Qizil O‘zbekiston” gazetasidagi maqolalar orqali “Sovg‘a” haqida yetarlicha ta’surotga ega bo‘ldik.

¹⁹ Hoji Muin. O‘zbekcha alifbolar tarixi (1926) “Maorif va o‘qutg‘uvchi” jurnali, 1926-yil, 2-son

²⁰ Shokirjon Rahimiy. Men nima deyman qubizim nima der. “Qizil O‘zbekiston” qaysidir yil 66-son

Bu alifboni tuzishda 1907-yilda ochilgan “Rahimiya” maktabi hamda Shokirjon Rahimiyning shaxsiy pedagogik tajribasi asosiy tayanch vositasi bo‘lib xizmat qiladi. 1924-yilga kelib mazkur darslik o‘z davrining taniqli olim va pedagoglari tomonidan muhokama qilinib, ma’qullanadi va Buxoroda o‘tkazilgan maslahat kengashi qarori asosida nihoyatda zarur darslik deb e’tirof etildi. Bu haqda o‘sha davrning mashhur ziyolilaridan biri Sulaymon Azim shunday deb yozgan edi: “Sovet tuzumining birinchi kunlaridan boshlab, to 30-yillarning oxirigacha yosh-u qari Shokirjon Rahimiyning darsligi tufayli savodxon bo‘ldi. Bu darslik bir necha marta qayta nashr etildi. “Sovg‘a”da bolalar ruhiyatiga mos kichik maqolalar va hayotiy lavhalar berilgan”. Tohiriy Ibrohimning “Alifbo va o‘qish kitoblarimiz” sarlavhali maqolasi ham haminqadar “Sovg‘a” haqda bizga ma’lumotlar bera oladi. U maqolasida shunday yozadi: “Bu alifbo Shokirjon Rahimiy tomonidan tuzilgan, Buxoroda yig‘ilgan maslahat majlisining qaroriga muvofiq, o‘z kuchining tuzatishi bilan O‘rta Osiyo Davlat nashriyoti tomonidan 1923-yilda uchinchi qatla nashr etilgan. “Sovg‘a”ning texnikasi ilgarigi “Sovg‘a” larg‘a qarag‘anda ko‘b yaxshi va chiroyli bo‘lib bosilgan.”²¹ Davr matbuotida “Sovg‘a” haqida turli xil bahs va munozalar, taklif va tanqidlar ham beriladi. Xususan, “Qizil O‘zbekiston” gazetasida “Sovg‘a” haqida Ibrohim Tohiriy va Shokirjon Rahimiy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qizg‘in bahs matbuotda barchaning diqqat - e’tiborini tortgan. Shu o‘rinda quyidagilarni ta’kidlash zarur: “Sovg‘a” alifbosi arab grafikasi asosidagi birinchi alifbo ham yoki uning ilk varianti ham emas.

XX asr boshiga kelib jadidlar tomonidan yangi tipdagi maktablarning ochilishi va unda o‘qitishning yangi-yangi usullarining qo‘llanilishi tufayli bolalarning xat-savodini tez chiqarishni ta’minlaydigan yangi darsliklarga ehtiyoj tug‘iladi. Shunday qaltil va murakkab ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri anglay olgan Saidrasul Saidazizov 1902-yilda ilk o‘zbek alifbosi - “Ustodi avval” kitobini, Munavvarqori Abdurashidxonov esa 1907-yilda “Adabi avval” kitoblarini

²¹ Tohiriy Ibrohim. Alifbo va o‘qish kitoblarimiz: (O‘rta Osiyo Davlat nashriyoti tomonidan 1924 yilda 4-qatla nashr etilgan Shokirjon Rahimiyning «Sovg‘a» alifbo kitobi haqida) // Turkiston. – 1924. – 26 noyab.

Toshkentda nashr ettirdilar. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” asari uch qismdan iborat. Birinchi qismi alifbo davrini o‘z ichiga oladi. Bu qism bolalarga arab grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosini o‘rgatishga bag‘ishlanadi. Mavjud 32 ta harfning har qaysisi alohida sarlavha asosida beriladi. Bu harflarning alohida, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida yozilish shakllari ko‘rsatiladi. Har qaysi shakl ostiga shu shakl qatnashgan so‘z keltiriladi. Undan so‘zning har qaysi harfni o‘lashtirish uchun so‘z ichida ishlatilishiga qator misollar beriladi. 32 ta harf bilan birga, sokin, pesh, tashdid singari harakatlarning qo‘yilish o‘rinlari, vazifalari o‘rgatiladi. Ikkinchi qismi esa alifbodan keyingi davrga bag‘ishlanadi. Bu qismda alifbo bilan tanishib bo‘lgan o‘quvchida o‘qish yozish ko‘nikmasini shakllantirishga e‘tibor qaratiladi. “Ustodi avval”ning uchinchi qismi “Alifboyi Qur’oniy”ga bag‘ishlangan. Unda muallif o‘quvchilarni Qur’on matnlarini qanday o‘qishga tayyorlashni maqsad qilib qo‘yadi. Shokirjon Rahimiy yana bir “O‘zbek alifbosi” nomli rasmi alifboni yaratadi. “Shokirjon Rahimiy tomonidan yozilg‘on bu rasmi alifbo “Davlat nashriyoti” tarafidan 1922nchi yilda faqat bir martaba 25 ming dona bosildi.”²²

Izlanishlar davomida shuning guvohi bo‘ldikki, “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1928-yil 28-avgust sonidagi yangi asarlar nomli sahifasida Rahimiyning “Jonli tovushlar” nomli yana bir yangi alifbo kitobi nashrdan chiqqanligi haqida e‘lon qilinadi. Unga ko‘ra Shokirjon Rahimiy muallifligida nashrga tayyorlangan bu mo‘jaz alifbo bolalar uchun mo‘ljallangan kichik hajmli kitobcha ekanligi haqida ma‘lumot beriladi. Ammo bu kitobchaning bugungacha yetib kelganligi yoki yetib kelmaganligi haqida hech qayerda ma‘lumot uchramaydi.

1924-yilda kattalarga atab “Kattalarga yo‘ldosh” nomli alifbo darslik chop etiladi. Bu haqda “Savodsiz katta kishilar uchun 24nchi yilda “markaz savodsizliqni bitiruv favqulodda komissiyasi” tomonidan 15 ming dona bosilg‘on

²² Hoji Muin. O‘zbekcha alifbolar tarixi (1926) “Maorif va o‘qutg‘uvchi” jurnali, 1926-yil, 2-son

bu alifboning tuzguvchisi Shokirjon Rahimiydir. “Kattalar yo‘ldoshi” ikki yil ichida tuzatilib, to‘rt daf‘a bosilib chiqdi.”²³, deydi Hoji Muin.

Z. Bashir Shokirjon Rahimiyning bu alifbo darsligi haqida so‘z yuritar ekan, “Savodsizliqni bitirish maktablari uchun tuzilgan alifbo kitobi tamomi bilan kattalarning ahvol ruhiyatlari va iste‘dodlariga muvofiq yozilmishdir. Chunki, turmushda tajribasiz miyasi kengaymagan yosh bolalar bilan kattalarning iste‘dod va istaklari tahomi bilan boshqa bo‘ladirkim: “Kattalar yo‘ldoshi”da bu masala juda yaxshi e‘tiborga oling‘an. Harflarni ko‘rsatish usuli va darslarning miqyosi kattalarning iste‘dodlariga muvofiq tuzilganidek dars oralaridag‘i tajriba uchun yozilg‘an jumlar hamda harflarni tamon aytgandan keyin o‘qitiladig‘an narsalar ham tamomi bilan kattalarning turmushi yo‘lidag‘i istaklarini beradurg‘on ma‘lumotlardan iboratdir.

Kitobni tartib etuvchi Shokirjon o‘rtoq sug‘orish ishlari va sug‘orish ishlaridagi yanggi yo‘llar, boylar ham mehnatkashlar hukumati, shuro hukumatining tuzilishi Turkiston jumhuriyatining siyosiy va iqtisodiy ahvoli, paxta ishlari, mol boqish ishlari, Qo‘shchilar Uyushmasi, omochning hozir foydasizlig‘i, sog‘liqni saqlash ishlari va boshqalar to‘g‘risida to‘la ma‘lumot berib o‘tgan.

Shokirjon Rahimiy o‘rtoq kitobni yangigina savodi chiqqan ishchi, dehqonlarga muvofiq bir tilda va bir usulda yozg‘an. Har bir masala rasmlar va diyagrammalar bilan ko‘rsatlgan. Asarda kamchiliklar va yetishsizliklar albatta bordir. Lekin muhim bir vaqtda va ko‘brak o‘zining yaxshi tomoni bilan birinchi martaba maydonga tashlang‘an bu asarni hozircha taqdir etishdan boshqa iloj yo‘q. umidimiz juda kattadir, Shokirjon Rahimiy o‘rtoqg‘a o‘xshash chin ixlosini va havasini solib, darsliklar tartib qilg‘uvchi o‘rtoqlarimiz yana maydonga tashlanurlar. Mana shul vaqtda ularni bir-biriga solishdirib, kamchiliklarini ham ko‘rsatib matbuotda ilmiy bir bob ocharmiz.”²⁴ – deydi.

²³ Hoji Muin. O‘zbekcha alifbolar tarixi (1926) “Maorif va o‘qutg‘uvchi” jurnali, 1926-yil, 2-son

²⁴Bashir Z. Kattalarga yo‘ldosh: (Shokirjon Rahimiyning savodsizlikni bitirish maktablari uchun tuzilgan «Kattalar yo‘ldoshi» nomli alifbo kitobi to‘g‘risida) // Turkiston. – 1924. – 23 iyul.

1930-yilda nashrdan chiqqan “O‘zbek tili. Ish kitobi” darsligi ham imlo ham insho qoidalarini o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan alifbo darsliklaridan biri hisoblanadi. Unda “Gap”, “So‘z”, “Turush belgisi (nuqta)”, “So‘zroq va undov belgisi”, “Unli va unsiz harflar”, “Bosh harf” kabi mavzular bayon qilinadi. Shuningdek darslikning 12-betida o‘zbek tilining yangi alifbosidan joy olgan harflar alifbo tartibida tanishtiriladi.

ЎЗБЕК ҲӘРФЛӘРІ

**A a, B b, C c, Çç, D d, E e, Ә ә, F f, G g, Q| q|,
H h, I i, J j, K k, L l, M m, N n, N, ƚ, O o, Ө ө,
P p, Q q, R r, S s, Ş ş, T t, U u, V v, X x, Y y,
Z z, Z z, Ь ь.**

Shokirjon Rahimiy darslikda atama va terminlarni qoidaga solib tushuntirishdan ko‘ra darslikni maxsus topshiriqlar bilan boyitgan holda soddaroq tilda, o‘quvchining o‘z tilida yetkazishga harakat qiladi. Uning 1934-yilda boshlang‘ich maktablarning 1-2-sinflari uchun tuzilgan “O‘zbek tili darsligi. Grammatika ham imla” darsligi nashrdan chiqadi. Ikki bo‘limdan tashkil topgan bu mo‘jaz darslik 55 betdan iborat. Birinchi bo‘lim, ya’ni maktabning birinchi sinflari uchun mo‘ljallangan qismda, “Gap”, “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi”, “Bo‘g‘in va bo‘g‘in shiljishi”, “Tovush” hamda “Tutuq (‘)” belgisi haqida tushuncha berib o‘tiladi. Ikkinchi bo‘lim esa “So‘zroq gap”, “Undov gap”, “Unli va unsiz tovushlar”, “Jarangli va jarangsiz unsiz tovushlar”, “Qaytalangan harflar”, “Urg‘u”, “Qo‘shma so‘zlar”, “Qo‘sh so‘zlar”, “Gapda so‘zlarnin bog‘lanishi” va ba’zi harflar haqidagi ma’lumotdan iborat. Darslikning 34-betida qayta ishlab chiqilgan o‘zbek alifbosining yangi tarkibi beriladi.

ALIFBE

**A (a), B (be), C (ce), Ç (çe), D (de), E (e), Ə (ə), F (fe), G (ge), Gʻ (gʻe),
H (he), I (i), J (je), K (ke), L (le), M (em), N (en), Ṇ (eṇ), O (o), P (pe),
Q (qe), R (er), S (es), Ş (şa), T (te), U (u), V (ve), X (xe), Z (ze), Ẓ (ze)**

(ʻ) opostrof

Darslikning birinchi mavzusida gap va uning tuzilishi mashqlar yordamida vazifalar bilan tushuntiriladi. Shokirjon Rahimiy gap haqida maʼlumotlar va mashqlar keltirar ekan boʻlimning ikkinchi sahifasida uning qoidasini keltiradi: Bir yoki bir muncha soʻzlar bilan anlatilgan ayrim ham tugal oʻyni gap deyiladi. “Qush ham hayvonlar tovushi” nomi bilan berilgan ikkinchi vazifada Shokirjon Rahimiy gapning eng maqboʻl va sodda, tushunishga oson boʻlgan variantini qoʻllaydi va misollarni koʻchirtirish orqali oʻquvchida matn yozish koʻnikmasini shakillantiradi. Qargʻa qagʻillaydi. It vovullaydi. Oʻrdak gʻagʻillaydi kabi. Uchinchi topshiriqda esa oʻquvchi fikrlab, oʻylab tasavvuridagi hayvonni qogʻozga tushurishi kerak boʻladi. “Oʻylaganingizni soʻzlar bilan aytingiz, soʻzngra yazingiz. Yazganingizda, birinchi soʻzni bosh harf bilan boshlangiz. Soʻzngra yazilib boʻlgandan soʻng, nuqta qoʻyingiz.” Toʻrtinchi mashqda baliq, ilon, chigirtka, qargʻa va sichqon togʻrisida berilgan matnni oʻqish topshirigʻi beriladi. Shokirjon Rahimiy darslikning topshiriq va mashqlarini shunday tuzadiki, birinchi sinf bolalari bir vaqtning oʻida ham oʻqishni, ham yozishni, ham fikrlashni osonlik bilan oʻlashtiradi va yetarli koʻnikmaga ega boʻladi. Berilayotgan topshiriqlarning har biri gap haqida umumiy tushuncha olishga koʻmaklashadi. Soʻzlarning bir-biri bilan bogʻlanishini Shokirjon Rahimiy koʻproq shaxs va predmet nomi va uni izohlab keluvchi gaplar orqali tushuntirib beradi. Toʻquvchi toʻqiydi. Temirchi yassilaydi.

2.2 Shokirjon Rahimiyning yozuv islohotida ishtiroki

Arab alfavitidagi belgilar sistemasi o‘zbek tilidagi tovushlarga emas, arab tili tovushlariga asoslangan edi va shuning uchun ham o‘zbek tili uchun yaroqsiz edi. Endi yozuv masalasiga kelsak, ma’lumki, yozuv nutq tovushlarining ma’lum belgilar orqali yozuvda berilish sistemasidir. Xo‘sh, arab yozuvida nutq tovushlarining hammasi ifodalanganmi? Bu yozuvda faqat undosh tovushlar va cho‘iq unlilargina ifodalangan. Xullas, arab yozuvi va imlosi o‘zbek tilining milliy tabiatiga mos tushmas edi. Shu sababdan asrimizning birinchi choragida alifbo va imlo masalasi xususida qizg‘in munozaralar bo‘lib o‘tadiki, ushbu jarayonni ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Arab yozuvini isloh qilish - milliyashtirish bosqichi (1918-1924-yillar).
2. Arab yozuvini lotinlashtirish bosqichi (1925-1929-yillar).

Arab yozuvini isloh qilish fikri turkiy xalqlar orasida o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘la boshladi. Matbuotda berilgan maqolalardan birida, “Bu masala birinchi marotaba Ozarbayjon va Tatariston turklari orasida tarqaldi”, - deb yozadi S.Uyg‘ur ismli kishi. Bu harakat ozarbayjonning mashhur adib va yozuvchilaridan bo‘lgan Mirzo Fatxali Oxunduf tomonidan kutarilgan. Bu kishi 1857-yilda arab alifbosini isloh etishni lozim topib, bu to‘g‘rida ilmiy va kuchli dalillar bilan loyiha tuzdi (arab yozuvida). O‘zbeklar orasida esa bu harakat 1918-yilda boshlandi. Bu harakat “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq edi. Arab yozuvini isloh qilish davomidagi eng muhim voqealardan biri bo‘lgan. Darhaqiqat, 1918-yilda Toshkentda til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug‘ullanuvchi tugarak-seminar – “Chig‘atoy gurungi” jamiyati tashkil topadi. Unga Fitrat (Abdurauf Abdurahimov) va Qayum Ramazonov boshchilik qilishadi. Shu yilning o‘zida Turkiston Muxtor Jumhuriyati Maorif Xalq Komissarligida “Turk sho‘basi” tashkil etiladi. Bu sho‘ba o‘zbek maktablari ishi bilan shug‘ullanadi, xususan, ta’lim dasturlari va maktab darsliklarini yaratish bo‘yicha ish olib boradi. Ish jarayonida alifbo, imlo va istiloh (termin) masalalari bilan

bog‘liq muammolarga duch kelingan, natijada, shu muammolarni hal etish zarurati paydo bo‘lgan. 1919-1920 yillarda “Chig‘atoy gurungi” jamiyati alifboni isloh qilish bilan bog‘liq qator ishlarni amalga oshiradi, “Bitim yo‘llari” kitobchasi yaratiladi, unda arab yozuvini o‘zbek tili tovushlari tizimiga moslashtirish lozimligi aytiladi, shu maqsadda alifboga (“u” unlisi uchun), (“o” unlisi uchun), (“o” unlisi uchun), (“a” unlisi uchun), (“i” unlisi uchun), (“e” unlisi uchun) harflarini kiritish tavsiya etiladi. Ushbu tashkilot nomlanishi XIII – XIV asrlarda mavjud bo‘lgan Chig‘atoy ulusi va XIV – XVI asrlarda eski o‘zbek tili ma‘nosida qo‘llangan chig‘atoy tili kabi atamalar va istilohlar bilan bog‘liqdir. Fitrat tashkilotga nom tanlashda Turkiston hududida yashagan turkiy xalqlarga daxldor merosni o‘rganishga e‘tibor qaratgan.

““Chig‘atoy gurungi” turkiy xalqlar madaniyati, san‘ati, adabiyoti, tarixi, til va imlosi kabi sohalarni jiddiy o‘rganishga kirishgan. “Gurung” a‘zolari o‘zbek tilining sofliqi uchun kurashish bilan bir qatorda yangi o‘zbek milliy madaniyatini barpo etishga intilganlar. O‘sha davrda mavjud bo‘lgan “Temur”, “Turon”, “Turon to‘dasi”, “Turk kuchi”, “Izchi” kabi to‘dalar va uyushmalarga nisbatan “Chig‘atoy gurungi” samarali faoliyat ko‘rsatgan. “Chig‘atoy gurungi” nizomida yozilishicha, u bir nechta sho‘balardan iborat bo‘lgan. Bu shu‘balar “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “San‘at va teatr to‘dasi” va boshqa deb nomlangan. “Til va imlo to‘dasi” ga dastlab Cho‘lpon, so‘ngra Elbek rahbarlik qilgan.”²⁵ Fitratning “Tilimiz” (1919) maqolasida ushbu to‘daning dasturiy yo‘nalishi belgilab berilgan bo‘lib, Ashurali Zohiriy, Elbek, Shorasul Zunnun, Qayum Ramazon, G‘ozi Olim Yunusov va Shokirjon Rahimiy kabi olimlarning tilshunoslikka oid ishlari ushbu dasturga binoan bajarilgan. “Gurungchilar” tomonidan 1919-yilda arab alifbosini isloh qilgan holda yangi alifbo yaratilgan.

1921-yilda Toshkentda 1-5-yanvar kunlari o‘zbek alifbosi va imlosi masalalariga bag‘ishlangan birinchi O‘lka qurultoyi ham bevosita “Chig‘atoy gurungi” tashkilotchiligida o‘tgan. Unda Fitrat, Ashurali Zohiriy,

²⁵ “Toshkent” ensiklopediyasi. Chig‘atoy gurungi. 2009-yil

Botu(M.Hodiyev) va “savodsizlikni bitiru qo‘mitasining otidan Shokirjon”²⁶ ning ma’ruzalari tinglanadi. Fitrat o‘z ma’ruzasida arab alifbosining o‘zbek tili xususiyatlariga moslashmaganligini, unda unli tovushlarni ifodalash uchun belgilar etishmasligini, unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflarning shaklan farqlanmaganligini, har bir harfning to‘rt shakli borligini yozuvdagi jiddiy nuqson deb baholaydi, bunday nomukammalikdan qutulish uchun esa arab alifbosidagi harflarning to‘rt xil shaklidan faqat bittasini (so‘z boshidagi shaklini) qoldirish, unli tovushlar uchun 6 ta harf belgilash, so‘zlardagi ohangdoshlikni yozuvda aks ettirish imkonini yaratish, chet (olinma) so‘zlarni o‘zbek tili xususiyatlariga moslab yozish kerakligini aytadi. Bu fikrga Elbek ham qo‘shiladi. Ashurali Zohiriy esa Fitratning taklifiga e’tiroz bildirib, chet so‘zlarning, xususan, arabcha va forscha o‘lashmalarning arab imlosidagi shakllarini o‘gartirmay yozish ma’qulligini, aks holda bunday so‘zlarning ma’nolari o‘garib ketishi mumkinligini aytadi. Shu tariqa imlochilar ikkiga – yangi imlochilar va o‘rta imlochilar guruhiga bo‘linib ketadi. Botu (M. Hodiyev) arab alifbosidan butunlay voz kechib, lotin grafikasi asosida yangi alifbo tuzish kerakligini aytadi. Bu haqda u shunday deydi, – “... Butunlay hozirgi arab harflarini tashlab, ko‘p millatlar tomonidan qabul qilingan lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarga muvofiq bir holg‘a keltirib qabul qilish kerakdir”. Shu ma’ruzasida Botu o‘zining lotin harflari asosida tuzilgan alifbosining loyihasini qurultoy ishtirokchilariga ko‘rsatadi, muzokaraga chiqqan S.Usmonxo‘jaev Botuning fikrini va loyihasini ma’qullaydi, ammo qurultoy qatnashchilarining ko‘pchiligi amaldagi (arabcha) alifboni ayrim tuzatishlar kiritish bilan saqlash kerak degan fikrni quvvatlaydi. Qurultoyda yozuv va alifboga oid quyidagi qaror qabul qilinadi:

1. Bu vaqtga dovur o‘zbeklar orasida yurub kelgan yozuvlar yo‘lsiz va qoidasiz bo‘lg‘onligidan, ko‘nferens yozuvlarimizni isloh etiluvini tilaydir.
2. Imlomizning islohi uchun olti cho‘g‘uli imlo qabul etilsa.
3. Harf-cho‘g‘ularimiz ayri-ayri shaklda bo‘lur.
4. O‘zbek so‘zlarida qalinlik va ingichkalik qoidasi qabul etilsun.

²⁶ Til va imlo qurultoyi. Qizil bayroq. 1921-yil, 5-yanvar

5. Harflarning hammasi ikki turli shakldan bir turli shaklga tushirulsin.

6. Tilimiz orasiga kirib qolg'on yot so'zlar o'z harflarimiz bilan yozilsun"²⁷.

Ularning Turkiyot va Markaz Ijroya Qo'mitasiga yo'llagan maktublarida shunday satrlar bor edi: "Kengash o'ltirishi o'zbek elining ma'vaviy turmushida tubdan o'zgarish yasovga birinchi negiz toshini qo'yarga deb yig'ildi. O'zining qisqa bo'ladirg'on davomida ul toshni juda pishiq va mahkam yerga qo'yg'usidir"²⁸. Ko'rinadiki, ular xalqning ma'vaviyatini ko'tarishda asosiy omillardan biri imlo, yozuv masalasining to'g'ri hal qilinishi ekanligini his qiladilar.

Shokirjon Rahimiyning o'zbek milliy yozuvi, imlosi va alifbosi borasida ko'rsatgan xizmatlari uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi tutgan o'rnini yaqqol ko'rsatadi. Uning bu boradagi xizmatlari uch narsada: arab yozuvini isloh qilishda, milliy tilni yaratishda va uning imlo tamoyillarini ishlab chiqishda aniq ko'rinadi. U arab alifbosining o'zbek tili nuqtayi nazaridan nomukammal ekanligini isbotlab misollar bilan isbotlaydi va mazkur alifbodagi qiyin va chalkash holatlardan qutulish yo'llari haqida takliflar kiritadi. Birinchi navbatda u arab alifbosiga unli harflar uchun yetarli belgilar qabul qilish, ya'ni arab yozuvida oltita (o, a, u, o', i e) unli bo'lishi kerak, deb taklif qiladi. Undan keyin arab alifbosiga unli va undoshlar uchun alohida shakl - belgi qabul qilish kerakligini aytadi. Ma'lumki, arab yozuvida ba'zi unli va undoshlar bitta belgi orqali ifodalanardi. Misol: و - vov belgisi v undoshi bilan birga u unli tovushini ham ifodalagan. Agarda, Shokirjon Rahimiy aytganidek, unli va undosh tovushlar alohida shakl bilan ifodalansa, yuqoridagi o'xshashlikka chek qo'yilardi. U vov belgisining qachon unli tovushi, qachon undosh tovushini. (v ni) ifodalashini farqlash maqsadida bu belgini ikki ko'rinishda yozishni taklif qiladi: birinchi ko'rinishi u va o' unlisini ifodalaydi; ikkinchi ko'rinishi esa v undoshini ifodalaydi.

Shokirjon Rahimiy isloh qilinmagan arab alifbosining o'zbek tili uchun noqulayligiga, bunday alifbo maorif ishida jiddiy qiyinchilik tug'dirishiga

²⁷ "Toshkent" ensiklopediyasi. Chig'atoy gurungi. 2009-yil

²⁸ I imlo Kengashi ultirishi. Qizil bayroq. 1920-yil, 8-son.

to'xtaladi. Olim ushbu qiyinchiliklarning oqibatlarini haqida: "Bizning hozirgi ishlatib turg'on yozuvimiz bo'l arab yozuvi deb atalg'on bir yozuv bo'lib, buni chin egalari arablar boshida boshqa millatdan o'gartib olg'onlari kabi, o'z tomonlaridan yana bir qancha islohlarni kiritib kelganlar, hozir arablarning o'zlari uchun muvofiq bir holga keltirilgan. Lekin bu yozuv arablarning yozuvlariga oson bir holga keltirilgan bo'lsa ham, bizga va bizning o'z ko'zimiz bilan o'lchanib qaralganda buning qiyin va yetishmagan yerlari ko'b ekanligi o'quv, o'qituv ishlaridan bir muncha xabardor bo'lgan kishilarga ochiq ma'lumdir."²⁹, deydi va arab alifbosidagi murakkabliklarni quyidagicha belgilaydi: "harp bilan cho'zg'i orasida ayirma bo'lmasdan ko'b yerda, ayniqsa bolalarga yangi harp tanitg'on chog'da bolalarni yangilashdirib bitiramiz. Shuni tuzatish kerak. Harp bilan cho'zg'i (mad) ni ayirib, tilimizda bo'lg'on cho'zgilarni yetarlik miqdorda topib qo'yish kerak." Bulardan tashqari, Shokirjon Rahimiy o'z vaqtida arab alifbosiga unli tovushlar uchun alohida belgilar qabul qilishni, aytib so'zlarning imlosida qalinlik va ingichkalik qoidasiga amal qilishni va arab yozuvidagi harflarning faqat bitta shaklda o'rgatilishini taklif qiladi. "So'z oralarida kelgan (ketgan), (kelgan)ga o'xshash so'zlarni o'zlarining tabiiy hollaridan chiqarib (ketgon), (kelgon) suratida yozamiz. Shuningdek, "sarp" darslarida qanday so'zda "g'o", qanday so'zda "ga" ishlatishni ham masdarlarda qanday so'zlarda "moq" va qanday so'zlarda "moq" va qanday so'zlarda "mak" ishlatishni diqqatga olmaymiz, holbuki, eski adabiyotning ba'zilarida bu to'g'rida o'zlari uchun tutulg'on bir yo'llari bordek ko'rinadi. Mana shuning uchun so'zlarni ba'zi belgilari va aytishlariga qarab qalinlik, ingichkaga ayirishga majburiyat boridir."³⁰

Bundan ko'rinadiki, olimning fikrlari juda asoslidir. Yuqoridagi kamchiliklar, Rahimiy ta'kidlaganidek, o'quvchilarning savod chiqarishida, ya'ni maorif ishida katta qiyinchiliklarga sabab bo'lardi.

²⁹ Jamolxonov Hasanboy, Umarov Abdusalom. O'zbek yozuvinin XX asr tarixi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2017. 117-bet.

³⁰ Shokirjon Rahim. O'zbek imlosi to'g'risida asoslar. "Qizil bayroq" 1922-yil,22-mart.

Arab yozuvidagi mavjud qiyinchiliklardan qutulmoq uchun Shokirjon Rahimiy mazkur alifboni isloh qilish - soddalashtirish kerak, degan fikrga keladi. Faqat isloh qilish natijasidagina arab yozuvini o‘zbek tilining milliy tabiatiga yaqinlashtirish mumkin edi. “Yozuvimizda tuzatulg‘on yana bir narsa bor; ul ham birgina haripning 2 yoki 4 shaklda bo‘lmog‘idir. Holbuki, biz o‘zimiz kechagina eski usul maktablarida birgina shaklda ko‘rsatib tanitg‘on harplarni usul ta’limga xilop bo‘g‘on uchun tashlatg‘on edik. Uning o‘rnig‘a o‘zimiz bir harpini to‘rt shaklda (bosh, o‘rta, oxir, yolg‘iz) deb tanitamiz. 2-nchi haripni (ا, ا̇ kabilarni) “oxir, yolg‘uz” deb tanitamiz. Bu narsa yolg‘uz taqlidchilik va haqiqatsizlikdan boshqa hech narsa emas, holbuki, har qayu harpning asl moddasi bosh harp bo‘lub, boshqalari uning ketiga chiziq, yo ust, ostig‘a qarab quyruq tortmoq bilan yasalatulg‘on shakllardir. Harplarni birgina (yolg‘iz) shaklda o‘rgatuvchi eski usul maktablari ham harplarning bosh shaklining oxiriga ushbu ma’lum quyruqlarni qo‘shub yolg‘uz harp bilan o‘rgatadilar... Biz ham harplarimizning shaklini birga tushursak, yosh bolalarg‘a o‘rgatish, tilig‘rap ishlari, yozu moshinalari, matbaa kassalarini ozaytirish yog‘idan xiyla poydaliq va hikmatlik bir ish qilg‘on, hozirg‘i zamon ta’biricha aytsak, iqtisod qilg‘on bo‘larmiz.” (Qarang o‘sha adabiyot)

1922-yilning 5-dekabrida Ozarbayjon turk yangi alifbo qo‘mitasi Turkiston Maorif Xalq Komissarligiga yangi (lotincha) turkiy alifbo loyihasini yuboradi. 1923-yilda Buxoroda 9-10-oktyabr kunlari O‘rta Osiyo o‘zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag‘ishlangan birinchi konferensiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda 1922-yildagi qaror asosida isloh qilingan yangi arab alifbosi qabul qilinadi. Alifboga quyidagi harflar kiritilganligini ko‘ramiz, unlilar uchun (“u”), (“o”), (“o”), (“a”), (“i”), (“e”) harflari, undoshlar uchun ب (“b”), پ (“p”), ت (“t”), ج (“j”) چ (“ch”), ح (“h”), خ (“x”), د (“d”), ر (“r”), ز (“z”), ژ (“j”), س (“s”), ش (“sh”), غ (“g”), ف (“f”), ق (“q”), ك (“k”), گ (“g”), (“ng”), ل (“l”), م (“m”), ن (“n”), و (“v”), (Ruscha “a”), (“y”) harflari. Arab tilining spetsifik tovushlarini ifodalab kelgan ث (“se”), ذ (“zol”), ص (“sod”), ض (“zod”), ط (“to”), ظ (“zo”), ع (“ayn”) harflari bu alifboga kiritilmaydi.

Konferensiyada yangi alifbo bilan birga imlo qoidalari ham qabul qilinadi. Bu alifbo va imlo qoidalari Turkiston Maorifi Komissarligi tomonidan 1923-yilning 1-oktyabrida tasdiqlanib, 1929-yilgacha amalda qo'llanib keladi.

Shu yili O'zbekistonda birinchi marotaba Markaziy Ijroqo'm qoshida 42 kishilik o'zbek yangi alifbo qo'mitasi tuziladi va Ijroqumning 4-sessiyasida o'zbek yangi alifbosi to'g'risida ma'ruza tinglanadi. Sessiyada arab alifbosining qiyinchiliklari ko'rsatilib, lotin asosidagi yangi alifbo zaruriy yozuv deb topiladi. Avgust oyida esa o'zbek tili taraqqiyoti uchun ilk konferensiya bo'lib o'tadi. Konferensiya ishtirokchilari o'zbek yangi alifbosining eng sodda va hammaga tushunarli bo'lgan shaklini yaratishni o'z oldiga qat'iy maqsad qilib qo'yadi.

1922-yilda Toshkentda Turkiston Respublikasi "O'zbek madaniyati va maorifi xodimlari qurultoyi" bo'lib, unda imlo masalalari bo'yicha Shokirjon Rahimiy, Ne'mat Hakim va E.D.Polivanov ma'ruzalari tinglanadi. Shokirjon Rahimiy o'z ma'ruzasida til va yozuvning ijtimoiy hayotdagi roli xususida gapirib, shunday deydi, "har qaysi ulusning adabiyotining tugallashmasi shu ulusning til va yozuvining tartiblik va yo'sunlik bo'lishiga bog'liqdir. Tartibsiz va qoidasiz til, yozuv bo'yicha tuzilgan adabiyotning bir kun emas bir kun bitishiga hech gumon yo'qdir. Til jon bo'lsa, yozuv uning badanidir. Sog' bo'lmag'on bir tanda jonning yashamog'i qiyindir. Bizning yozuvimiz kasal. Buning ilojiga tezdan kirishilmasa ish havflidir"³¹. Qurultoyda yozuvni lotin alifbosiga ko'chirish masalasi ham ko'riladi, hatto lotin harflari asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbosi (loyiha) kengash ishtirokchilariga ko'rsatiladi. Yuqoridagi takliflar muhokama qilib bo'lingach, quyidagi qaror qabul qilinadi:

1.O'zbek imlosini isloh qilish zarur, bunda o'qish va yozishga o'rgatishni yengillashtirish nazarda tutilishi, ayni vaqtda tegishli ilmiy asoslar va bu sohadagi yangi yo'nalishlar e'tiborga olinishi kerak.

2.Lotin alifbosi o'zbek tili uchun to'liq yaroqli ekanligini e'tirof qilib, bu ishni hozirda amalga oshirishdagi katta qiyinchiliklarni hisobga olib, bu ish kelajakning vazifasi ekanligi ko'rsatilsin, hozirda esa arab alifbosini isloh qilish

³¹ Sh.Rahimiyning "O'zbekiston madaniyati va maorifi xodimlari qurultoyi"dagi ma'ruzasidan.

bilan kifoyalanilsin. (Bu qarorda o‘zbek tili unilarining soni 6 ta, undoshlarining soni esa 2 ta ekanligi qayd etilgan.)

Endi yana lotinlashtirish davriga qaytadigan bo‘lsak, bu vaqtdagi eng muhim voqea sifatida 1926-yil Boku shahrida o‘tkazilgan Turkiyot qurultoyini ko‘rsatish mumkin. Turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyiga borgan O‘zbekiston vakillari: “Rahim In‘om o‘g‘li (Rag‘imjon Inog‘omov – T.T.), A.Zohiriy, SH.Rahim, Elbek, B.Rahimoni, Abdujabborof, Vyatkin - jami 7 kishi ham alohida chaqirish bilan Fitrat boradur. Bularning ikki marta majlislari bo‘lub, o‘tdi. 20 fevralda Bakuga qarab jo‘naladur. Buxorodan 10 nafar sharq cholg‘uchilari va 5 nafar ashulachilar olib boriladi.” Chunonchi, 26-fevral – 6 mart kunlarida bo‘lib o‘tgan Turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyiga borgan bir guruh O‘zbekiston vakillari lotinchilik oqimiga chindan tarafdor ekanliklarini bildirib o‘tadilar.

Unda arab va rus grafikalarini asosida ish ko‘rayotgan turkiy xalqlarning yozuvlarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko‘chirish masalasi ko‘riladi. Qurultoyda turkiy xalqlarning yozuvlarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko‘chirish taklifi ma‘qullanadi, bu taklifning har bir Respublikada maxsus ko‘rib chiqilishi tavsiya etiladi. Ana shu tavsiyadan so‘ng O‘zbekistonda lotin grafikasiga ko‘chirish harakati ancha tezlashadi. Chunonchi, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida chiqqan bir maqolada bu haqda shunday deyiladi, “Nima uchun arabdan lotinga o‘tish kerak. Shu so‘zroqqa qisqa qilib shunday javob beramiz:

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.
2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadur. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh, o‘rta va so‘znggi harflar bordur. Lotin esa Bulardan uzoqdir.
3. Arab alifbosi o‘qitish, o‘rganish ishida lotindan ortda turg‘oni, texnika tomonining buzuqligi ustiga stenografiya, teleografiya ishida ham to‘sqinlik qiladur.”

Ushbu qurultoy barcha turkiy xalqlar uchun umumiy alifbo qabul qilishni kun tartibiga qo‘ygan edi. Qurultoyda hamma turkiy jumhuriyatlardan vakillar

qatnashadi. Ular ikki guruhga bo‘lingan edilar; arabchilar - arab yozuvida qolish tarafdorlari va lotinchilar. (Arab yozuvidan lotinga o‘tish tarafdorlari.)

Bu davrda o‘zbek xalqi orasida lotin yozuviga o‘tishni xohlovchilar ko‘pchilikni tashkil qilardi. Shu sababdan qurultoyda O‘zbekistonlik vakillar nomidan gapirgan Bekchon Rahmon o‘g‘li shunday deydi: “Arab madaniyati, arab harufoti va umuman arab ta’siri natijasida O‘rta Osiyo xalqlarining umumiy madaniyat ishlarida boshqa xalqlardan necha yuz yillar keyinga qolg‘onliqlarini, oyoqqa bosib keladig‘on yosh o‘zbek madaniyatining baynalchilik madaniyatga yaqinlashish maqsadida, eski ta’sirlardan ozod bo‘lishka tayyor”. Yuqoridagi satriardan anglashiladiki, bu qurultoyda o‘zbeklar lotin alifbosiga o‘tish uchun ovoz berdilar.

Ushbu qurultoyda Dog‘iston, Shimoliy Kavkaz, Turkmaniston, Boshqirdiston, Qirg‘iziston imlochilari yangi alifbo qabul qilish kerak degan fikrni bildiradilar. Tataristonlik vakillar esa arab alifbosida qolish istagini bildiradilar. Biroq ular qurultoy ishtirokchilarining juda kam qismini tashkil qilar edi. Xullas, 1926-yilgi Turkiyot qurultoyi alifbo to‘g‘risida uzil-kesil fikrni bildirdi.

Turkiy jumhuriyatlarning barchasi arab yozuvidan lotin alifbosiga o‘tish to‘g‘risida kelishib oldilar. O‘sha davrdan boshlab bu vazifani hal qilish uchun havakat boshlandi. Galdagi vazifalardan biri turkiy xalqlarning barisi uchun qulay, oson alifbo loyihasini ishlab chiqish edi. Qurultoy bo‘lib o‘tgach, yangi alifboning bir necha xil loyihalari tavsiya qilinadi va ular atrofida munozaralar davom qiladi.

Taklif qilingan loyihalarga asoslangan holda 1927-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan o‘zbek, qozoq va qirg‘iz jumhuriyatlarining ilmiy kengashida yangi alifbo qabul qilinadi. Bu alifbo O‘rta Osiyo turklari uchun yagona alifbo edi. Imlochilar turkiy xalqlar alifbosini birlashtirishga, imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Kengash tomonidan qabul qilingan alifboda 28 ta harf, ikkita belgi: ingichkalik belgisi va apostrof bor edi. Bu alifbo, bizning nazarimizda, turkiy tillar tabiatiga, ulardagi fonetik qonuniyatlarga ancha mos kelardi. Bunga sabab alifbo yaratishda ilmiy asoslar to‘g‘ri belgilanganligidir. 1927-yilning dekabr oyida ishlar qizg‘in tus oladi. Markaziy qo‘mitadan tashqari 10 ta rayon va okruk

qo‘mitalari yangi alifboni ommalashtirish uchun kurslar va to‘garaklar ochishga kirishadi. Markaziy qo‘mita o‘z oldiga o‘zbek tili yangi alifbosining taraqqiyotini belgilab beruvchi besh yillik reja tuzadi.

O‘zbekning katta olimi, 30-yillar qatag‘onining qurboni G‘ozi Olim Yunusovning quyidagi fikrlari bizning fikrimizning to‘g‘ri ekanligini isbotlaydi: “O‘rta Osiyo turklarining birlashgan yangi alifbosini tuzishda kengash ushbu asoslarga tayandi:

1.O‘rta turk lahjalarida mushtarak bo‘lgan tovushlarga bir turli shakl olindi.

2.Bir lahjaning o‘iga xos bo‘lgan tovushlariga alohida harflar tuzilini, ul harflar umum O‘rta Osiyo alifbosiga kirgizildi...

3.O‘rta Osiyo turk lahjalarining hammasida qalinlik va ingichkalik qonuni bo‘lg‘onligini e‘tiborga olib, tovushlarga shakllar belgilashda bu qonundan foydalanildi, ya‘ni juft tovushlarning faqat qalinlarigagina shakl olinib, ingichkalari maxsus belgi bilan ifoda qilinaturg‘on bo‘ldi... Bu yo‘l bilan tovushlarning vakllarida ko‘p iqtisod qilindi...

4. Tovushlarga shakllar saylanganda kengash shunday asos tutdi:

a) tovushlarning shakllari faqat lotin alifbosidan, agar ul yetishmasa, lotin harflari asosida tuzilgan alifbolardan olindi;

b) lotin harflari lotinchada ifoda qilgan tovushlariga mos qilib olindi;

v) harflarning bir-birisiga o‘xshash bo‘lishidan qochildi;

g) harflarning ostiga yoki ustiga nuqta va belgilar qo‘yishdan mumkin qadar saqlanildi;

d) bir tovushga murakkab shakl olinmadi;

ye) ta‘limda yengillik va iqtisod yuzasidan harflarning birgina shakllari, ya‘ni katta-kichik, yozma va bosma harflar bir shaklda qabul qilindi”³².

Keltirilgan ma‘lumotdan ko‘rinadiki, yangi alifbo qat‘iy qoidalar asosida tuzilgan. Kengash ishtirokchilari qabul qilinayotgan alifboning turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lishi bilan birga, har bir turkiy xalq uchun milliy bo‘lishiga, ya‘ni ulardagi maxsus tovushlarning ifodalanishiga ham erishganlar. Boshqacha

³² G‘ozi Olim. O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi. “Maorif va o‘qituvchi”, 1927-y, 6-son.

aytsak, ushbu alifbo turkiy xalqlar uchun umumiy, ayni vaqtda har bir turkiy xalq uchun milliy alifbo edi.

1926-yilning 16-oktabrida O‘zbekiston Ijroiya Sho‘rolar Jumhuriyati Markaziy qo‘mitasi o‘ining 88-sonli qarori bilan yangi alifbo Markaziy va mahalliy qo‘mitalari nizomini tasdiqlaydi. Bu Nizomda Markaziy va mahalliy qo‘mitalar strukturasi huquq va vazifalari belgilanadi.

1929-yilning 15-23-mayida lotinlashtirilgan o‘zbek yozuviga to‘la o‘tish bilan boshlanadi va Samarqandda Respublika til-imlo konferensiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda asosan 3 ta masala – adabiy til, istiloh (termin) va imlo masalalari ko‘riladi. Bu konferensiyada adabiy til me‘yorlarini belgilashda singarmonizimli qishloq shevalarining xususiyatlarini hisobga olish lozimligi haqida takliflar bo‘ladi, shu asosda alifboda ham unilarni ifodalovchi 9 harfning bo‘lishi ma‘qullanadi, alifboga bosh harflar qo‘shiladi va harflar tartibi belgilanadi.

Shu yilning 15-may sanasida “Til-imla kanferensiyasi”ga Shokirjon Rahimiy ham “Imla masalasida bir-ikki so‘z” maqolasi bilan qatnashadi. Va fonetika, imlo, bosh harfning qo‘llanilishi kabi masalalarni majlis kun tartibiga qo‘yadi. Xususan, fonetika bo‘yicha so‘z yuritar ekan, u, shunday deb yozadi: “Imlomizda fo‘netika, ya’ni eshitilganicha yozish asos bo‘ladi. Biroq bunda eshitilganicha yozishni yuz foiz amalga kiritish mumkin emas. Bizda bo‘lg‘on bir o‘rinda bu xil, ikkinchi o‘rinda ikkinchi xil aytiladurg‘on so‘zlarni yozishda anarxiya shaklini olib qolg‘usidir. Shul sababli imlomizda eshitilganicha yozish ustiga sarfli asosni ham rioya qilish degan bir moddani ortdirish kerak.”³³ Rahimiyning bu fikri ko‘pchilikka ma‘qul keladi. Ayniqsa, uning eshitilganicha yozish qoidasi bo‘yicha yoziladigan so‘z va qo‘shimchalar bir o‘rinda, masalan, -tirish qo‘shimchasi “alish-tirish” so‘zidagi kabi bo‘lib kelsa, ikkinchi o‘rinda “qutul-turush” so‘zida esa boshqacha shaklni olishi mumkinligi va bunday paytda “lab ohani”ga qarab yozish haqidagi taklifi e‘tirofga sazovor bo‘ladi. Shu kabi tilning grammatik tuzilishi va adabiy til haqidagi bahs-munozaralar yana bir o‘tish davrini boshlab keladi. Alifbo, til, imlo, grammatika, fonetika kabi asosiy

³³ Sh.Rahimiy. Imlo masalasida bir-ikki so‘z. Qizil O‘zbekiston. 1929-yil 10-may soni

bahslarga sababchi bo‘layotgan masalalarning yechimini topmasdan so‘zlar va ulardagi bosh harfning kerak emasligi haqidagi fikrlarning paydo bo‘lganligini Rahimiy qattiq tanqid ostiga oladi va bu ishni yoqlamasligini bildirib “Hozir bo‘lmasa, biroq kelgusida bosh harf olinadurg‘on narsa bo‘lg‘onidan, hozirdan boshlab uning yo‘lini qattiq to‘sib qo‘yish kelishmagan bir ish”, deya ta’kidlab o‘tadi. Va “Biz lotin asosida bosh harfni qabul qilishimizga hali erta. Biroq hozirg‘i kichik harflarning o‘iningina jumla boshida yoki otog‘liq ismlarda kata yozilishig‘a qarshi bo‘lmasliq kerak.”, deya bosh harfning qo‘llanilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Singormaniya haqida Rahimiyning “O‘zbek adabiy tili masalalari” nomli maqolasi (“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 19-may sanasi 115-sonida) ham chiqariladi. Unda “Til-Imla kanferensiyasi”ning ikkinchi majlisida ishtirok etgan Alaviy va Naim Said ismli ma’ruzachilarning “adabiy til jonli shevalarni o‘z ichiga olg‘on va asosiy ommaning jonli tilig‘a suyanilg‘an bo‘lishi kerak” ligi, haqidagi mulohozalarini quvvatlaydi. Ma’ruzachilarning fikrini o‘rganar ekan Shokirjon Rahimiy ularga o‘z munosabatini ham bildirib o‘tadi: “Hozirgi adabiy tilimiz mumkin qadar zamon bilan birga o‘sib keladi, kengayadi. Agar atamalar ishlansa va bir muncha tekshirishlar orqasida hozirgi adabiy tilimiz oliy maktablarga ham muvofiqlashadi. O‘zbekiston kabi ko‘b shevalarga ega bo‘lg‘on bir mamlakatda adabiy til tuzish qiyin. Bizda adabiy tilimiz shu shevalarni o‘ ichiga olishi, shu shevalarda gapiruvchilarga oid bo‘lishi shart. Ishlanagan adabiy tilimizni tuzishdagi tajribalardan bundan keyin to‘la foydalanishimiz kerak. Hozirg‘i adabiy tilimizda shu shevalarning har qaysisidan alohida unsurlar borki, bu albatta ijtimoiy buyruqdir. Busiz biz adabiy til tuza olmas edik.”³⁴ Darhaqiqat, Shokirjon Rahimiyning singarmonizm haqidagi shu kichik maqolasi ham o‘sha davrdagi tilimizning holatini anglashga va uning bugungi holatgacha qanday bosqichlarni bosib o‘tganligi haqida o‘ylashga chorlaydi. U singarmonizm haqida so‘z yuritar ekan, avvalo, bir narsani oydinlashtiradi: “Tilimizda singarmo‘niya

³⁴ Shokirjon Rahimiy. Imlo masalasida bir-ikki so‘z Qizil O‘zbekiston – 1929-yil 10-may 106-son.

bormi, yo‘qmi? ” Bu savolning javobi esa aniq – “Bor.” Savolga javob berilgach, Shokirjon Rahimiy, “Biz singarmo‘niya uchun shunday bir yo‘l tutayliqkim, bizning imlomizni o‘qug‘an va o‘rgangan kishilar qiynalmasinlar ham tuzgan qoidamiz to‘kis bo‘lsin.”, deya uch qoidani tayanch qilib ko‘rsatadi:

1. So‘zlarimiz quloqqa yoqimlik bo‘lsin uchun ba’zi bir so‘zlarni kuchanib qalin so‘zlash va yozishdan qochmoq. Qalin so‘zlar uchun ayrim bir chegara qo‘ymoq.
2. Ba’zi bir chetdan kirgan so‘zlar yoki o‘zbekcha qo‘shimcha so‘zlarning qalin bo‘lg‘on bo‘g‘imlarining o‘zinigina qalin yozib, boshqalarini ingichka yozish.
3. Qalinliqqa tobe bo‘lmaydurg‘on so‘zlarni ingichka yozish.

Endi Rahimiyning oldida yana bir savol turadi: “Qalinlik va ingichkalik unlik harfdami, unsiz harfdami?” Bu savol esa noaniq, ammo buni u aniqlashga harakat qiladi va q, x, g‘ – qalin, k, g – ingichka va unli harflarning ham to‘rttasi qalin, beshtasi ingichka boshqa barcha harflarni esa “ora yo‘lda qolg‘on”, ya’ni so‘zdagi o‘rniga qarab belgilanadigan harflar deb keltiradi. Va agar unsiz harflardagi qalinlik-ingichkalikni faqat unli harflarga qoldirish fikri tug‘ilib qoladigan bo‘lsa, ulovimiz kuchsizlik qilib, uni ko‘tara olmay qolishi mumkin” ligi haqida aytib o‘tadi. “Ayniqsa, o‘zbeklar unlik harflardan yolg‘iz e, a ham i da qalinlik, ingichkalikni ajratadilar. Boshqa unlik harflarda bo‘lg‘on farq ochiq bilinmaydi. Mana shul sabablardan ko‘z oldig‘a olib, bizda bo‘lg‘on imlochilar iki yo‘lning birinchi ixtiyor qilmoqlari kerak.

- 1) unlik harflarni qisqartirish,
- 2) unsiz harflarni bir shaklga qo‘yish (x o‘rta holda qoladi).”³⁵

Shu va shu kabi masalalarning yechimi yo‘lida Fitrat, A.Zohiriy, Elbek, G‘.Yunusov va Shokirjon Rahimiylar qattiq tadqiqodlar olib borishgan. Rahimiy o‘sha davr o‘zbek til ilmi darajasiga mos va xos bo‘lgan singarmozim hodisasini

³⁵ Shokirjon Rahimiy. Imlo masalasida bir-ikki so‘z. “Qizli O‘zbekiston”. 1929-yil 10-may.

ham yoqlab chiqqan. Nihoyat, 1932-yilgi konferensiyada shu vaqtgacha qilingan tadqiqodlarning mahsuli o'laroq olti unli harf qabul qilinadi.

Shokirjon Rahimiy o'tgan asrning 20-yillarida o'zbek alifbo-imlosini isloh qilish va o'zbek adabiy tilini shakllantirish yo'lida faol ishtirok etadi. O'sha davrda bosilgan maqolalari, savod chiqarish va savodsizlikka bag'ishlangan darslik-kitoblari bilan maktab maorifi tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shadi.

1929-yilning 10-avgustida O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig'ilishi bo'lib, unda may oyida bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi. "Qoidalar" 29 moddadan iborat bo'lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko'proq o'rin beriladi. Yozuvning ayni shu jihati jamoatchilikda e'tiroz tug'diradi, bu e'tiroz 1933-yilda o'zbek orfografiyasi qoidalarining yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.

Bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, Shokirjon Rahimiy nomi uning milliy pedagogika tarixiga hissa bo'lib qo'shilgan ilk kitobi – "Sovg'a" bilan yonma-yon esga olinadi. Bu alifboni tuzishda 1907-yilda ochilgan "Rahimiya" maktabi hamda Shokirjon Rahimiyning shaxsiy pedagogik tajribasi asosiy tayanch vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shokirjon Rahimiy "O'zbek alifbosi" nomli rasmlil alifboni ham yaratdi. "Shokirjon Rahimiy tomonidan yozilgan bu rasmlil alifbo "Davlat nashriyoti" tarafidan 1922nchi yilda faqat bir marta 25 ming dona bosildi."³⁶

Izlanishlar davomida shuning guvohi bo'ldikki, Shokirjon Rahimiy, "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1928-yil 28-avgust sonidagi yangi asarlar nomli sahifasida Rahimiyning "Jonli tovushlar" nomli yana bir yangi alifbo darsligini yaratganligi haqida ma'lumot topdik. Unga ko'ra Shokirjon Rahimiy muallifligida nashrga tayyorlangan bu mo'jaz alifbo bolalar uchun mo'ljallangan kichik hajmli

³⁶ Hoji Muin. O'zbekcha alifbolar tarixi (1926) "Maorif va o'qutg'uvchi" jurnali, 1926-yil, 2-son

kitobcha ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Ammo bu kitobchanning bugungacha yetib kelganligi yoki yetib kelmaganligi haqida hech qayerda ma'lumot uchratmadik.

1924-yilda kattalarga atab "Kattalarga yo'ldosh" nomli alifbo darslik chop etdi.

Shokirjon Rahimiyning o'zbek milliy yozuvi, imlosi va alifbosi borasida ko'rsatgan xizmatlari uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi tutgan o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

Uning bu boradagi xizmatlari uch narsada: arab yozuvini isloh qilishda, milliy tilni yaratishda va uning imlo tamoyillarini ishlab chiqishda aniq ko'rinadi. U arab alifbosining o'zbek tili nuqtayi nazaridan nomukammal ekanligini isbotlab misollar bilan isbotlaydi va mazkur alifbodagi qiyin va chalkash holatlardan qutulish yo'llari haqida takliflar kiritadi.

Shokirjon Rahimiy o'z vaqtida arab alifbosiga unli tovushlar uchun alohida belgilar qabul qilishni, aytib so'zlarning imlosida qalinlik va ingichkalik qoidasiga amal qilishni va arab yozuvidagi harflarning faqat bitta shaklda o'rgatilishini taklif qiladi.

Lotinlashtirish davridagi eng muhim voqea 1926-yil Boku shahrida o'tkazilgan Turkiyot qurultoyi bo'ldi. Turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyiga borgan O'zbekiston vakillari orasida Shokirjon Rahimiy ham bor.

Ushbu qurultoy barcha turkiy xalqlar uchun umumiy alifbo qabul qilishni kun tartibiga qo'ygan edi.

1929-yilning 15-23-mayida lotinlashtirilgan o'zbek yozuviga to'la o'tish bilan boshlanadi va Samarqandda Respublika til-imlo konferensiyasi bo'lib o'tadi. Shu yilning 15-may sanasida "Til-impla kanferensiyasi"ga Shokirjon Rahimiy ham "Impla masalasida bir-ikki so'z" maqolasi bilan qatnashadi. Va fonetika, imlo, bosh harfning qo'llanilishi kabi maslalani majlis kun tartibiga qo'ydi.

Shokirjon Rahimiy o'tgan asrning 20-yillarida o'zbek alifbo-imlosini isloh qilish va o'zbek adabiy tilini shakllantirish yo'lida faol ishtirok etadi. O'sha davrda

bosilgan maqolalari, savod chiqarish va savodsizlikka bag'ishlangan darslik-kitoblari bilan maktab maorifi tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shadi.

III BOB. SHOKIRJON RAHIMIYNING ONA TILI DARSLIKLARI VA ILMIY MAQOLALARIDA O‘ZBEK TILI GRAMMATIKASINING ISHLANISHI

3.1.Fonetik qarashlari

Shokirjon Rahimiy ham tom ma'noda hozirgi o'zbek tilshunosligining haqqoniy asoschilaridan biridir. U o'zbek tilidagi cho'zg'ilar va harflarga bag'ishlangan qator tadqiqotlarida o'zbek tilining qator ilmiy-nazariy masalalarini ishlab chiqdi. Uning o'zbek milliy yozuvi, imlosi va alifbosi borasidagi xizmatlari uning o'zbek tilshunosligi tarixida tutgan o'rnini yaqqol ko'rsatadi. U arab yozuvini isloh qilish yo'lida faol qatnashib, arab yozuviga asoslangan o'zbek tilining o'z milliy tiliga va yozuviga ega bo'lgan til sifatidagi alifbo va imlosi nazariyalarining yaratilishida o'z hissasini qo'shdi. 20-yillarda o'zbek tiliga doir asarlar juda ozchilikini tashkil qilar edi. O'sha vaqtda maktablarda ona tili sifatida usmonli turk tili o'rgatila boshlagan va tilimiz grammatikasi ham o'sha til grammatikasi ta'sirida qolgan edi. Ana shunday sharoitda A. Fitrat, A. Avloniy, A. Zohiriylar qatorida Shokirjon Rahimiy ham tilimizning o'z tabiatida, o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda milliy grammatikasini yaratdi. Tilning rivojlanish yo'llari haqidagi olimning fikrlari bugungi fan uchun ham alohida ahamiyatga ega. U 2 ta narsaga alohida to'xtaladi: alifbo va imlo (eshitilgani kabi yozishning oqibatlarini)

Rahimiyning o'zbek tilining tovush qurilishi - unli va undoshlar tizimi, o'zbek tilining fonetik qonuniyatlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlari hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotmay kelayotgani diqqatga sazovor. Uning bu boradagi fikrlari hozirgi o'zbek tilshunosligidagi mavjud qarashlar bilan deyarli bir xildir. Yuqoridagalardan ko'rinadiki, Shokirjon Rahimiy tilshunoslikning deyarli barcha nazariy masalalari bilan shug'ullangan olimlardan biridir.

Shokirjon Rahimiyning alifbo va imlo borasidagi xizmatlari haqida gap ketganda, u tomondan ilgari surilgan imlo tamoyillariga alohida to'xtalmoq lozimdir. Shokirjon Rahimiy imlo qoidasini yaratar ekan, fonetik tamoyilni boshqalaridan farqlashni ta'kidlab o'tadi. Ma'lumki, fonetik tamoyilga ko'ra ba'zi

affikslar qanday talaffuz etilsa, yozuvda ham shunday yoziladi. Bu haqda u “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 10-may sonida e‘lon qilingan “Imlo masalasida bir-ikki so‘z” maqolasida shunday yozadi, “Imlomizda fo‘netika, ya‘ni eshitilganicha yozish asos bo‘ladi. Biroq bunda eshitilganicha yozishni yuz foiz amalga kiritish mumkin emas. Bizda bo‘lg‘an bir o‘rinda bu xil, ikkinchi o‘rinda ikkinchi xil aytiladurg‘on so‘zlarni yozishda imlomiz anarxiya shaklini olib qolg‘usidir. Shul sababli imlomizda eshitilganicha yozish ustiga sarfli asosni ham rioya qilish degan bir moddani ortdirish kerak. Bo‘lib o‘tgan turkiyot qurultoyida ham turk xalqlarining imlosi haqida shunday bir qaror qabul qilingan edi”. Uning eshitilganicha yozish asos bo‘lgan imloning chalkashliklari ko‘pligini va oxir-oqibati ziddiyatli xatoliklarga olib kelishi haqidagi fikrlari ham e‘tiborga molikdir. Jumladan, lab ohani masalasida eshitilganicha yozishning oqibatlarini aniq isbotlab keltiradi: “Lab ohani masalasi ham imloda katta o‘rin oladi. Eshitilganicha yozish asosini ko‘z oldig‘a olg‘ondan so‘zng bizga albatta lab ohanini rioya qilib yozish lozim. Biz bir yerda “alishtirish” – “alʼʃtʼrʃ” deb o‘ylassoq, ikkinchi yerda shul so‘zning qo‘shimchasi boshqa bir ohan bilan “qutulturush” – “qutulturuʃ” deganidagi qo‘shimcha shakliga kiradi. Mana bunday yerlarda lab ohanig‘a qarab, eshitilganicha yozish kerak.

Qo‘shimcha: shunga o‘xshab, “do, da, don – dan, dek, di” qo‘shimchalari ham lab ohanig‘a qarab “to, ta, ton,-tan, tek, ti” shakliga kiradi, misol: otto, ishta, otton, ittan, ittek, ochti, toshti kabi.”

Rahimiy arabcha so‘zlarni talaffuzga ko‘ra yozishni, o‘shanda unli tovushlarning yozuvda to‘liq ifodalanishini aytib o‘tadi. Shunday yozilsa, talaffuz va imlo birligi saqlanadi, savodxonlik darajasi yaxshilanadi.

Rahimiy faqat arab so‘zlarni emas, balki boshqa tillardan qabul qilingan barcha so‘zlarni fonetik tamoyil asosida yozishni taklif qiladi. Rahimiy ushbu taklifi bilan olinma so‘zlarni tilimizning milliy tabiatiga, ichki qonuniyatlariga bo‘ysundirishni taklif qiladi. Bu haqda Elbek ham o‘zining “Yozuv yo‘llari” asarida quyidagilarni yozadi: “Tilimiz orasiga qotishib qolg‘on yot so‘zlarni yozg‘on chog‘imizda butunlay o‘z tovushlarimiz bilan yozmog‘imiz kerakdir.

Yolg'iz soʻzlarning qalinlik va ingichkaliklarida mumkin boʻlgʻon qadar qoida bilan yozib, mumkin boʻlmogʻonlarini eshilitilganicha yozmoqgʻa toʻgʻri keladir³⁷. Elbekning mazkur tamoyilga koʻra soʻzlarning qadimgi shakli hozirgi talaffuzga mos kelmasa-da tarixiy shaklda yoziladi. Bu tamoyillarni mulohaza qilgan Shokirjon Rahimiy esa arabcha soʻzlardan aslicha emas, balki oʻzbek tilining ichki qonuniyatlariga moslashtirib yozishni taklif qiladi. Uning fikricha, arabcha soʻzlarda undoshdar bilan bir qatorda unlilar ham yozilishi hamda bu soʻzlar singormonizmning bir koʻrinishi boʻlganini qalinlik va ingichkalik qoidaga buysundirilishi kerak. Arabcha soʻzlarni bu tarzda yozish bunday soʻzlarni tarixiy shaklidan uzoqlashtiradi. Shokirjon Rahimiyning fikrlari adabiy tilning ogʻzaki shakli bilan yozma shaklini yaqindashtirishga, savodxonlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. U oʻining tilshunoslik va pedagogik faoliyatida doimo imlo qoidalari va adabiy tilimizning mukammal boʻlishi uchun kurashdi. Olimning “Til-imlo konferensiyasi oldidan mubohasalar. “Imlo masalasida bir-ikki soʻz. Imlodan tutiladigan asoslar”³⁸ maqolasi bevosita imloviy asoslarni aniq belgilash masalasi haqida boʻlib, bu maqolada Shokirjon Rahimiy tilimizdagi soʻzlarni eshilitilganicha yozishni amalga kiritmaslikni, lab ohangi, singarmoniya masalasi, tov ushlarning qalinlik va ingichkaligi, choʻzgʻilar masalasi haqida yozadi va oʻz takliflarini berib oʻtadi. Shokirjon Rahimiy singarmoniya masalasi boʻyicha shunday deydi: “Tilimizda singirmoʻniya (qalinliq, ingichqaliq) bormi, yoʻqmi? Bor. Biroq bizdagi singirmoʻniya qozoq-qirgʻiz tillarda boʻlgʻonidek hamma soʻzlarga yura bermasdan, balki bir qismi soʻzlarda singirmoʻniya yuz oladi. Masalan, arabdan kirgan “hayot”, “salom” kabi soʻzlar, forsiycha qoʻshimchalar bilan yoziladigʻan gʻildirak, gʻijjak kabi soʻzlar, oʻzbekcha boʻlgʻon “nok, tok” kab soʻzlar, “bolalalarniki” deganidagi “niki” qoʻshimchasi va boshqalar kabi. Tilimizda bundan boshqa chetdan kirgan va kirib bormoqda boʻlgʻon koʻb soʻzlar bordir, ularni singirmoʻniyaga ergashtirish mumkin emas. Ayniqsa, oʻzbekchadan

³⁷ Fitrat. Imlo konferensiyasi munosabati ish. “Maorif va oʻqituvchi”, 1913 №, 3-mk,

³⁸ Shokirjon Rahimiy. Imlo masalasida bir-ikki soʻz. Imlodan tutiladigan asoslar// Qizli Oʻzbekiston – 1929-yil 10-may 106-son.

bo'lg'on "belbog'", "Oybek" kabi qo'shimcha so'zlar o'zlari qo'shma so'z bo'lib ketgan holda, ularni butunlay singirmo'niyaga qaratib bo'lmaydi. Buning uchun ba'zi o'rtoqlar kabi hamma so'zlarning boshini yozib, ko'ini chiqarib, singirmo'niyaga qaratish yoki singirmo'niyaga qaramaydurg'on so'zlarga chek qo'yib, ayrim bir ro'yxat tuzish hech bir mantiqiy bo'la olmaydi.". Ko'rinib turibdiki, olim singarmoniya hodisasini yaxshigina anglagan va bu haqdagi o' mulohazalarini yetarli darajada asoslar bilan yetkaza olgan. U tilimizdagi singarmoniya hodisasini barcha uchun tushunarli va soddaroq qoidalar bilan asoslashni aytib shunday taklif kiritadi: "Biz singirmo'niya uchun shunday bir yo'l tutayliqkim, bizning imlomizni o'qug'an o'rgangan kishilar qiynalmasinlar ham tuzgan qoidamiz to'kis bo'lsin. Buning uchun ko'riladurg'on chora mana shul:

1-so'zlarimiz quloqqa yoqimliq bo'lsin uchun ba'zi bir so'zlarni kuchanib qalin so'zylash a yozishdan qochmoq. Qalin so'zlar uchun ayrim bir chegara qo'ymoq.

2-ba'zi bir chetdan kirgan so'zlar yoki o'zbekcha qo'shimcha so'zlarning qalin bo'lg'on bo'g'imlarining o'inigina qalin qilib yozib, boshqalarini ingichka yozish.

3-qalinliqqa tobe bo'lmaydurg'on so'zlarni ingichka yoziladi."³⁹ Demakki, Shokirjon Rahimiy 20-yillardagi imlo jarayonida faol ishtirok etgan, o'sha davrda alifbo va imlo masalalarini hal qilishda sezilarli hissa qo'shgan. Uning "O'zbek tili ish kitobi", "Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)" darsligida hozirgi tilshunoslik tili bilan aytganda, morfologiya haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Ma'lumki, morfologiya tilshunoslikning so'z turkumlari va kategoriyalarini, so'zning shakllar sistemasini hamda shu shakllarning hosil bo'lish yo'llarini o'rganuvchi bo'limidir. Kitobda morfologiyadan tashqari o'zbek tili fonetikasi haqida ham qoidalar mashqlar orqali mustahkamlanadi. Shokirjon Rahimiy o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni sanab ko'satadi. So'zngra esa u o'zbek tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlarga to'xtaladi. Olim dastlab o'quvchi e'tiborini o'zbek

³⁹ Shokirjon Rahimiy. Imlo masalasida bir-ikki so'z Qizli O'zbekiston – 1929-yil 10-may 106-son.

tilidagi yo'g'onlik va ingichkalik qonuniga jalb qiladi, undan keyin o'zbek tilidagi ayrim hollarda yuz beradigan tovush o'zgarishlari haqida ma'lumot keltiradi.

Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi imlo kengashining Til va imlo qurultoyida Shokirjon Rahimiy "O'zbek imlosi to'g'risida asoslar" haqida ma'ruza qiladi. Va arab grafikasi va o'zbek imlosi haqida jiddiy tanqidiy bahs-munozaralarga o'z takliflarini bildiradi: "Hozirg'acha ishlatilib kelgan yozuvimizda yetarlik cho'zg'i yo'q. Arabchaga taqlid 3-4 cho'zg'i olsoq ham bu kipoya qilmaydir. Yana harp bilan cho'zg'i orasida ayirma bo'lmasdan ko'b yerda, aynuqsa bolalarg'a yangi harp tanitg'on chog'da bolalarni yanglishdirib bitiramiz. Shuni tuzatish kerak. Harp bilan cho'zg'i (mad) ni ayirib, tilimizda bo'lg'on cho'zg'ilarni yetarlik miqdorda topib qo'yish kerak."⁴⁰

Olim 1930-yilda "Tuzuk yazuv, imla, insha, til qaidalari, o'rganuv va tilni achuv yo'lida ikkinchi o'quv yilig'a qaratib tuzatilgan."⁴¹ "O'zbek tili ish kitobi" da o'zbek tilining tovush qurilishi haqida muhim fikrlarni ilgari suradi. Tovush va harflarni quyidagicha ta'riflaydi: "Har qayu so'z tavishlardan yasaladi. Tavishlarning yazuv shakli **harf** deb ataladi. O'zbek tilida **33 tavish** ham ularni ko'rsatgan **33 harf** bar."⁴²

Olim fonema va uning variantlari o'rtasidagi munosabatni yaxshi anglaydi. Har qanday fonema real talaffuz qilinganda yondosh tovushlar ta'sirida turli o'garishlarga uchrashi mumkinligi, lekin ularning hammasi bir umumiy fonemaning vakillari ekanligini payqaydi. Avvalo, o'zbek tili fonemalarini akustik-artikulyasion xususiyatiga ko'ra ikki katta guruhga bo'ladi: unlilar va unsizlar. Bu o'aro zidlangan atamalar fonemalarning akustik belgisiga ko'ra tasniflanishini juda to'g'ri aks ettiradi. Sof undan iborat bo'lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo'lmaganlar esa unsizlardir. Va bunga u quyidagicha ta'rif beradi: O'zbekcha tavish-harflar ikkiga bo'linadi: **unli** va **unsiz**. Aytg'anda cho'ila turg'an tavish-harflar unli. Aytg'anda cho'ilmay turg'an tavish-harflar unsizdir. Va ularning

⁴⁰ Shokirjon Rahim. O'zbek imlosi to'g'risida asoslar. "Qizil bayroq" 1922-yil, 22-mart.

⁴¹ Ş. Rəhimii. Özbek tili II (iş kitabı). Öznəşr. Taşkent – 1930.

⁴² O'sha adabiyot

to‘qqiztasi unli (**a, ə, e, u, y, o, o, ь, i**). Shokirjon Rahimiy unlilarning ingichka, yo‘g‘on variantlarini ko‘rsatadi. Yo‘g‘on unlilarni (**a, o, u, ь**) to‘rtta, ingichka unlilarni esa (**ə, e, y, i, o**) beshtaga ajratadi.

Ynli hərflər:	
Joqan	ingickə
a	ə
u	e
ь	y
o	i, o

24 unsiz harflardan esa 2 si (q, q) yo‘g‘an, 2 si ingichka (k, g). Qalg‘anlari jayig‘a qarab yo‘g‘an va jayig‘a qarab ingichka bo‘ladi.” – deydi.

Ynsiz hərflər:			
Joqan		Içicka	
q		k	
q		g	
həm joqan həm içicka			
в	h	ñ	t
c	j	p	v
ç	l	r	x
d	m	s	z
f	n	ş	z

Shokirjon Rahimiy qo‘llagan atamalar hozirgilardan ozgina farq qiladi. Unli tovushlarga nisbatan aynan ushbu atamani qo‘llagan bo‘lsa, udoshlarga nisbatan unsiz atamasini qo‘llaydi. Bizningcha, olim qo‘llagam atama ma‘qulroqqa o‘xshaydi. Chunki undosh so‘zining asl ma‘nosi boshqacharoq. (Qaysidir ma‘noda

unliga yondosh, hamroh degan mazmun anglashiladi). Unsiz deganda esa ovozsiz (unsiz) faqat shovqindan iborat tovushlar tushuniladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, 20-yillarda ko'pgina tilshunoslar, jumladan, Shokirjon Rahimiy ham cho'zg'ilar degan atamani ham ishlatishgan. O'sha davr tilshunoslari tovushlardagi cho'iq (yo'g'on) va qisqa (ingichka) likni asos qilib olganlar. Olimning o'zbek tili tovush tizimi haqidagi fikrlari o'lashtirilgach, u ta'kidlagan ayrim fonetik qonuniyatlarga to'xtalinadi. Uning "Qalinliq va ingichkalik unlik harfdami, unsiz harfdami?" sarlavhali kichik hajmli maqolasida shunday yozadi: "Bu haqda haligacha mantiqli bir javob bera olmaymiz. Unsiz harflarni olg'onimizda q,x,ɔ (k, x, g') – qalin, k, g – ingichka, boshqalari ora yo'lda qolg'on – joyig'aqarab qalin, joyig'a qarab ingichka. Unlik harflarning ham to'rttasi qalin, 5 tasi ingichka. Mana bu yerda biz unsiz harflardagi qalinliq-ingichkaliqni yolg'iz unlik harflarninggina ustiga yo'qlasak, ulovimiz kuchsizlik qilib uni ko'tara olmaydi. Ayniqsa, O'zbekistonning shaharlarida va bir necha qishloqlarida bo'lg'on o'zbeklik unlik harflardan yolg'iz ə, a ham e da qalinliq, ingichkalikni ajratadilar. Boshqa unlik harflarda bo'lg'on farq ochiq bilinmaydi."⁴³ Qalinlik va ingichkalik masalasiga o'taklifini bayon qiladi: "Mana shul sabablarni ko' oldig'a olib, bizda bo'lg'on imlochilar iki yo'lning birini ixtiyor qilmoqlari kerak.

1) unlik harflarni qisqartirish,

2) unsiz harflarni qisqartirib, unda bo'lg'on q-k, ɔ-g ga o'xshag'on harflarni bir shaklga qo'yish (x o'rta holda qoladi)."

Shokirjon Rahimiy lab ohangi atamasini ham qo'llaydiki, bu o'akda til oldi unlisi kelsa, qo'shimchaning ham til oldi unlisi qatnashgan variantini qo'llash demakdir. Misol: a) yugur + mak (til oldi unlilari qatnashgan); 5) o'qi + moq (til orqa unlilari qatnashgan). Bu qonuniyatlar 20-yillarda adabiy me'yor sifatida tan olingan, shundan kelib chiqib Shokirjon Rahimiy ham bu hodisaga jiddiy ahamiyat bergan.

⁴³ Shokirjon Rahimiy. Imlo masalasida bir-ikki so'z Qizli O'zbekiston – 1929-yil 10-may 106-son.

Shokirjon Rahimiy darslikka yangi “qo‘shaloq unlilar”⁴⁴ termini ham olib kiradi. Unga ko‘ra: “Ba’zi bir so‘zlarda u-y, i-ь unlilardan song **v** yoki **j** kelsa, u chag‘da **v** bilan **j** ning tavishi unlilarga aralashib uzaq cho‘iladi. Buni “qo‘shaloq unlilar” deyiladi. Missaol: kurak-kuvrak, zirak-ziyrak, suv-sufad, silamaq-siylamaq so‘zlaridagi y-yv, i-ij, u-uv, ь-ьj kabi.”. (31-bet) Ko‘rinadiki, harf va tovush o‘rtasidagi munosabatlarni Shokirjon Rahimiy yaxshi anglagan tilshunioslardan bo‘lgan. U So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi (42-bet) haqida to‘xtalar ekan, “So‘zning har bir bo‘lagini (har bir dam alib bo‘lishini) “bo‘g‘in” deb keltiradi. Darslikda esa o‘quvchiga tushuntirishning oson yo‘lidan boradi.

Vazifa 78. Tubanda aytilg‘an daraxtlarning atlarini yazingiz. so‘z bo‘laklari (bo‘g‘inlar)ni chiziq bilan ayiringiz, unli harflarning astig‘a chizingiz.

Daraxtlar

Te - -də Naş – va - ...

Bi - - oʻqoʻq Al – xo - ...

Ə - - nar A – lu - ...

Al - - cə Şap – ta - ...

(Ərcə, алхорь, sədə, vihi, cənar, alma, şaptalь, terək, aluca, jaŋoʻraq, ɵryk, naşvatь).

U bo‘g‘inni ikki guruhga ochiq va yopiqqa ajratadi. Unga ko‘ra, “Qaysi bo‘g‘inning so‘zngida unli harf bo‘lsa uni “ochiq bo‘g‘in. Qaysi bo‘g‘inning so‘zngida unsiz harf bo‘lsa uni “**yapiq bo‘g‘in**” deyiladi. (48-bet) Bo‘g‘inlarning ichidan eng qattiq cho‘ilib talaffuz etiladiganini esa **basm (urg‘u)** deb aytadi. Basmlar uchun shartlik qilib (°) belgisini keltiradi.

Vazifa 98. 93 inchi vazifaga oxshab ishlangiz.


Qara-qara, Taqa-taqa, Ot-ot, Bar-bar, Teg-teg, Aja-aja, Ajьl-ajьl, Alma-alma, Basma-basma, Bitmə-bitmə, Bastьrma-bastьrma, Ajьrma- ajьrma.

Rahimiy o‘zbek tili fonologik tizimidagi fonemalar nutq jarayonida bir qancha variantlar orqali namoyon bo‘lishini, nutq jarayonida turli xil fonetik

⁴⁴ Ş. Rəhimii. O‘zbek tili II (iʃ kitabi). O‘znəşr. Taşkent – 1930.

o‘garishlar ro‘y berishini ko‘rsatib beradi. “OZBEK TILI DARSLIGI (grammatika ham imla)” darsligida “bo‘g‘in ham bo‘g‘in siljishi” (17-bet) sarlavhasi ostida fonetik hodisalarning bayon qilinishi o‘sha davr tilshunosligi uchun katta voqea edi. So‘zlarning bo‘laklardan tuzilishi va uning har qaysi bolaklari esa bog‘un deb atalishi Shokirjon Rahimiyning yaratgan qoidasi edi. U bo‘laklar bo‘ylab biridan ikkinchisiga siljiydigan ovoz harakatini “**bo‘g‘in siljishi**” deb keltiradi.

Vazifa 46. Bog‘unlarni bir-biriga qoshib soz yasangiz. Natijada qanday so‘z yasaladi? Ko‘chirib yazganda, har so‘zning bug‘unlarin arasiga chiziqcha qo‘yingiz.



Shokirjon Rahimiy, so‘zlar tovushlardan yasaladi, – deydi, – tovushlarni esa harflardan. Ularda fonetik o‘garishlar ro‘y berishini nazarda tutib “So‘zlardagi ba’zi tavushlarning yozilishi eshitalishiga qarag‘anda bashqacha bo‘lishi mumkin.”, deb ta’kidlab o‘tadi.

Unli va unsiz tavushlarni guruhlariga ajratar ekan ularni shartli ravishda ikkiga bo‘ladi va quyidagicha keltiradi: “a, ə, u, e, o, i larni unli tavushlar deb ataladi. B, c, ç, d, f, g, oʻ, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, ş, t, v, x, z, z larni unsiz tavushlar deb ataladi.” (34-bet)

Alifboga tartib berishda ham o‘ziga xos uslubdan foydalanib harflarni shu tartibda uyushtirib “alifbe” deb ataydi.

Shokirjon Rahimiy unli tovush-harflarni 6 taga: **a, ə, u, o, i, e**. shulardan qolganlarini “unsiz” harflar deb ataydi. Opostrof haqida yozar ekan uning “tavushi bo‘lmay **tutuq bilgisi**” ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

ALIFBE

A (a), B (be), C (ce), Ç (çe), D (de), E (e), Ə (ə), F (fe), G (ge), Gʻ (ge),
 H (he), I (i), J (je), K (ke), L (le), M (em), N (en), N̄ (en̄), O (o), P (pe),
 Q (qe), R (er), S (es), Ş (şa), T (te), U (u), V (ve), X (xe), Z (ze), Z̄ (ze)
 (') opostrof

Boʻgin ham unli tavushlar (35-bet) sarlavhasi bilan boʻgʻin hodisasi haqida soʻz yuritadi. Va unga shunday taʼrif beradi: “Bir soʻzdan qancha unli tavush boʻlsa, boʻgʻin ham oʻshancha boʻladi. Bir boʻgʻinli soʻzlar ham boʻladilar: *at, tar, tla, sna, tort, eraq, tlak, elan, Marks* kabi. Soʻzzlar ikki boʻgʻinli ham boʻladilar: *ata, ana, uka, aka, beda, Stalin, traktor* kabi. Soʻzzlar uch boʻgʻinli ham boʻladilar: *maşina, telefon* kabi. Koʻp boʻgʻinlilar ham boʻldi: *Stalinabad, Axunbavajev* kabi.

Yoʻgʻan soʻzlar (32-bet) va **Ingichka soʻzlar** (33-bet) terminini Shokirjon Rahimiy yoʻgʻan va ingichka unllilarning qay biri ishtirok etishiga koʻra ajratadi. U ichida **i, y, o, e, ə**. ingichka unllilaridan biri yoki bir nechasi bor boʻlganini **ingichka soʻzlar**, ichida **ь, u, o, a**. yoʻgʻan unllilaridan biri yoki bir nechasi boʻlgan soʻzlarni esa **yoʻgʻan soʻzlar** deb taʼkidlaydi.

Olim baʼzi harflar paydo qilgan tovushlarni fonetik jihatdan farqlanishini taʼkidlaydi: “Soʻzlardagi baʼzi tavushlarning yozilishi eshitalishiga qaragʻanda bashqacha boʻlishi mumkin.” (22-bet) Va mavjud 31 ta belgining har qaysisini alohida sarlavha asosida berib, ularning talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin boʻlganlarini bir-biri bilan bogʻliqlik va farqlilik jihatlari koʻrsatadi. “A - Ə” tovushi (23-bet) ni maxsus misollar orqali tushuntiradi: *Əlim, Alim, Əvəz, avaz, bəs, bas, tən, tan, baj, bəj, bala, bəla, madda, məddə*. Mustahkamlash uchun topshiriqlar beradi: **Vazifa 62**. Birinchi ham ikkinchi joldagi sozlarni caoʻqʻstiringiz, a harfi qandaj oquladi (ajtiladi)? Qaysi joldagi sozlarda a tavushi tagʻin ham tola aytiladi?

1) *Abad, aciq, adam, aqqa, aqma, aqir, aqiz, ahar, aj, ajdin, alam, alqir, axlat, alis, ana, aq, aş.*

2) *Abdasta, adras, agar, ajb, ajil, askar, albatta, ançir, arra, asta, astar, aşula, aka.*

“O” tovushi (23-bet) ning fonetik xususiyatlarini quyidagicha ta’kidlaydi: “Birinchi ham ikkinchi joldagi sozlarni caqishtiringiz, o harfi qandaj oquladi (ajtiladi)? Qays joldagi sozlarda o tavushi aniq ham tola ajtiladi?”

Shokirjon Rahimiy “U” tavushi. (24- bet), “V” tavushi. (25-bet), I – E tavushi, “J” tavushi, “Q- K”, “QI – G” hamda Tutuq (‘) belgilari, ularning fonetik va grammatik xususiyatlarini keltiradi

Shokirjon Rahimiy ko‘rsatib bergan yuqoridagi fonetik hodisalar hozirgi kunga qadar ham darslikdan-darslikka ko‘chib yuribdi. Shokirjon Rahimiyning fonetik qarashlaridan muhimi urg‘u haqidagi ilk ta’limotidir. Urg‘u tushunchasini bosim atamasi bilan ifodalaydi. Uning fikricha, bosim ko‘p bo‘g‘ini so‘zlardagi bo‘g‘inlardan birining boshqasidan kuchliroq talaffuz qilinishidir. Shokirjon Rahimiy har bir so‘zning, albatta, bosimi bo‘lishini, bosimning odatda, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushishini, shu bilan birga ayrim qo‘shimchalar bosim olmasligini ta’kidlaydi. Bu hodisa Fitrat, keyinchalik A.G‘ulom tomonidan maxsus o‘rganiladi va Shokirjon Rahimiy fikrlarining ko‘pi tasdiqlandi.

3.2.Leksik qarashlari

Tillarni rivojlantirishning bir yo‘li shuki, milliy tilning o‘z imkoniyatlari orqali yangi tushunchani ifodalashning iloji bo‘lmasa, boshqa tillardan so‘z olish zarur. (So‘z qabul qilish me‘yorlari haqida ham Shokirjon Rahimiy ibratli fikrlarni ilgari suradi). Shu tarzda o‘lashtirish milliy tillarning rivojiga xizmat qiladi. O‘lashgan so‘z mazkur tilning milliy tabiatiga - tovushlar tizimiga, grammatik qonuniyatlariga iloji boricha moslashtirilishi zarur. Shokirjon Rahimiyning e’tiborini tortgan yana bir masala – unutilib ketgan, ya’ni arxaik so‘zlardan unumli va o‘rinli foydalanishdir. “Arxaizmlardan shu tarzda foydalanish milliy tillarning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu narsa milliy tilning o‘z ichki manbalari hisobiga rivojlanishini ta’minlash bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Eskirgan so‘zlardan foydalanish tilimizga ikki tomonlama foyda keltiradi: birinchidan, turkiy so‘zlar

hisobiga (Agar arxaizm kelib chiqishi jihatidan sof turkiy bo'lsa) tilimizning o'iga xosligi, milliyliigi saqlanadi. Ikkinchidan, hozirgi o'zbek adabiy tili bilan eski o'zbek tilini bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi." Hozirgi fanda adabiy til sheva va dialektlaridan so'z olish hisobiga ham boyib borishi e'tirof etiladi. Shokirjon Rahimiy ham xalq jonli tiliga alohida e'tibor bergan. Demak, Shokirjon Rahimiy tilning tabiiy taraqqiyot yo'llarini to'g'ri ang'laydi va uning ichki va tashqi manbalarini to'g'ri ko'rsatadi.

Shokirjon Rahimiy 1929-yilda bo'lib o'tgan Til-imlo kanferensiyasining ikkinchi majlisida o'zbek tilining boyish yo'llari haqida ma'ruza qilgan Alaviy va Naim Saidlarning ma'ruzalaridan so'ng o'zining ham ba'zi fikrlarini va qarashlarini bildirib o'tadi. "Hozirg'i adabiy tilimiz mumkin qadar zamon bilan birga o'sib keladi, kengayadi. Agar atamalar ishlansa va bir birmuncha tekshirishlar orqasida hozirg'i adabiy tilimiz oliy maktablarga ham muvofiqlashadi. O'zbekiston kabi ko'b shevalarga ega bo'lg'an bir mamlakatda adabiy til tuzish qiyin. Bizning adabiy tilimiz shu shevalarni o'z ichiga olishi, shu shevalarda gapiruvchilarga o'ng bo'lishi shart. Ishlangan adabiy tilimizni tuzishdagi tajribalardan bundan keyin to'la foydalanishimiz kerak. Hozirg'i adabiy tilimizda shu shevalarning har qaysisidan alohida unsurlar borki, bu albatta ijtimoiy buyruqdir. Busiz biz adabiy til tuza olmas edik. Ayrim bir sheva esa shuncha ko'b shevalarni o'z ichiga ola olmaydi. Har qaysi shevaga alohida adabiy til tuzish – separatizmdir. Shevalar masalasi boshqa jumhuriyatlarda ham shu holdadir. Bugungi adabiy tilimiz eski chig'atoy tili emas, balki jonli tillardan oziq olg'on tildir.

Bizda adabiy til masalasida singarmo'niyali, singarmo'niyasiz tillar "jo'qchilar", "yo'qchilar" borlig'i ma'lum. Doqladchilarning fikrlari 9 cho'zg'ini ichiga olg'on singarmo'niyali va "yo'qchilar" tomonidalar, chunki hozir ishlanib turg'on adabiy tilimiz (yo'qchilar)ni olib, o'rniga "jo'qchilar" adabiy til tuzsak, bir qancha yillik muvaffaqiyatlar otib tashlangan bo'ladi. Agar aslini surishtirganda jo'qchilar bilan yo'qchilar orasidag'i farq ma'no emas, savtiy ayirmadirki, bu uncha muhim emas.

Adabiy til asosiy ko‘bchilik omma(ga) tushunarlik, soda bo‘lishi bilan birga boy bo‘lsin, soddalik lug‘atda va nahvda bo‘lsada, boyliq sarfiy shakllarning ko‘pligidadir. Bu kungi adabiy tilimizning nuqsonlari ko‘b ishlashni talab qiladi. Masalan, kelar zamoni qat’iy ifoda etg‘uvchi sig‘amiz yo‘q. Holbuki, adabiy tilimizning bir rukni bo‘lg‘on xorazm tilida “joq- jak” qo‘shimchalari borki, buni olish bilan bu kamchilikni yo‘qotish mumkin. Xalqqa tushunarlik va harakatda bo‘lg‘on jonli tilni ishlash va o‘rganish bilan yana shu ko‘bchilik ommaning adabiy tilini tuzgan bo‘lamiz.”⁴⁵

Ma’lumki, har bir tilning leksikasi ikkiga o‘z va o‘zlashma qatlamga bo‘linadi. O‘z qatlam leksikasi o‘zlashma qatlam leksikasiga nisbatan ajratiladi. Lekin qatlam deganda ma’lum bir tilning so‘zlari ichida (lug‘at sostavida) so‘zlarning dastlabki kelib chiqishi, qaysi tilda yasalganligi, qaysi til orqali boshqa tilga kirib kelganligiga ko‘ra bo‘linishi tushuniladi. O‘zbek tili leksikasining turkiy (umumturkiy va o‘zbekcha), eroniy, arabiy va ovrupaviy (ruscha va yevropacha) qatlamlardan iborat ekanligi, shu bilan birgalikda unda xitoy, hind, mug‘ul, yunon unsurlari ham mavjudligi o‘zbek tili leksikasining o‘z qatlamini o‘zbek va boshqa turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan, qadimgi davrlardan beri ishlatilib kelingan so‘zlar, o‘zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida yaratilgan barcha so‘zlar tashkil etadi. O‘zbek tilining so‘z yasash sistemasida o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirgan so‘z va affikslardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, xorijiy tillardan kirgan so‘z negizlariga o‘zbekcha affiksni qo‘shish orqali yasalgan so‘zlar o‘z qatlamga kiradi. O‘zbek tili lug‘at sostavining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhimdir. Bu o‘zbek tili leksikasining asosiy tayanch va rivojlanish manbaidir. O‘zlashma qatlamni esa o‘zbek xalqining boshqa xalqlar bilan bevosita va bilvosita tarixiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy, siyosiy va diniy aloqalari natijasida boshqa tillardan o‘zbek tiliga o‘lashgan so‘z va iboralar tashkil etadi. O‘zbek tili lug‘at sostavining boyishi va takomillashuvida tashqi manbaning roli hamda ahamiyati kattadir. Lug‘at boyligimizdagi ko‘pgina so‘zlar miqdorini xorijiy

⁴⁵Shokirjon Rahimiy. O‘zbek adabiy tili. Qizil O‘zbekiston. 1929-yil 17-may 114-son.

tillardan kirgan soʻzlar tashkil etadi. Endi Shokirjon Rahimiyning tadqiqotimizda manba vazifasini oʻtagan darsliklarida va maqolalaridagi leksik qarashlari haqida alohida toʻxtalib oʻtamiz.

Shokirjon Rahimiy “Oʻzbek tili II (ish kitobi)” darsligida soʻz haqida toʻxtalar ekan, gapning boʻlaklarini “soʻz” deb ataydi. Va ularni “iki soʻzli, uch soʻzli va koʻp soʻzli”⁴⁶ turlarga ajratib koʻrsatadi. Va oʻquvchilarning soʻz haqidagi bilimini topshiriqlar orqali mustahkamlaydi.

Quyida 16-vazifani koʻring(10-bet): Tubandagi gaplarni soʻzlarga ajratingiz.

Kiŝilär kəp zamandan eujan javajb hajvanlarnb avlajdb. Arslan, qaplan kəbi jbrtqbc, qan təkyci hajvanlar kiŝilär ycyn xavflbdr. Məna ŝundaj hajvanlarnb av qbluv cyda qbybn. Arslan jaki qaplanqa oxŝaŝan javajb hajvanlarnb əldirgən kiŝi bahadbr sanaladb.

Rahimiy har bir soʻzni maxsus darajalar boʻyicha soddadan murakkabga qaratib oʻstirib boradi. Bu orqali oʻquvchining soʻzlarni va gap boʻlaklarni belgilab beradigan ega, kesim, toʻldiruvchi qismlarini farqlay olish qobiliyatini qoidasiz ham tushuntirishga harakat qiladi.

Olimning darsligini kuzatar ekansiz, leksik yangi atamalar va istilohlarga koʻzingiz tushadi. Bugungi oʻzbek tilining dastlabki lotin yozuvidagi grammatikasida lotin harflari orqali tasvirlanayotgan “qoʻsh soʻz”, “qoʻshaloq soʻz” kabi bu terminlarning grammatik maʼnosi ham bugungidekmikan? Bu savolga “qoʻsh soʻz”lardan javob izlaymiz.

Shokirjon Rahimiy “**Qosh soʻz**” (34-bet) atamasini “Bir-biriga tengdash boʻlgʻan yoki bir qatarda ikitadan kelgan bir turli soʻzlar” guruhiga nisbatan ishlatganligini koʻrish mumkin. U “Qoʻsh soʻzlarni bir-biridan ayirmaq uchun aragʻa bir chiziq” qoʻyadi. Va buni naʼmunasi bilan misol qilib keltiradi: *saf-saf, ala-qara, ək-ykə*. Qoidning soʻngini mashqlar bilan davom ettiradi. **Vazifa 64:**

Tubandagi maqalani oʻqib, daftaringizga koʻchiringiz. Qoʻsh soʻzlarni izlab tapingiz. Uning ustiga chiziq chizingiz.

⁴⁶ Shokirjon Rahimiy “Oʻzbek tili II ish kitobi (1930), 8-bet

Jatim balalar ata-anasiz, qarindash-urushsiz, akaykasiz, egaci-sinilsiz, yst-basiz bolad. Ular kijim-keaksiz, ash-nanqa ham muxtaq boladlar. Ularqa rahm-shafqat qoluv zazryr.

Ko'rib turganingizdek, hozigi o'zbek tilimizda ishlatiladigan "qo'sh so'z" bilan Shokirjon Rahimiy tomonidan ishlatilgan "qo'sh so'z" termining o'rtasida deyarli farqni uchratmaysiz.

"Qo'shalaq so'z" (36-bet) terminini darslikka kiritar ekan, olim, ikkita mustaqil so'zdan yangi bir so'zni yasaydi. Quyida uni shunday qoidalashtiradi: "Iki so'z bo'lib boshqa bir narsaning ati bo'lsa, u chag'da har ikkala so'zni birikdirib, bir so'z qilib yoziladi. Bunday so'zlarni "qo'shalaq so'z" deb ataladi. Misal: bajcecak, ajbalta, xumkalla, kimozar, velbaq, teksinc, cыnabad, onqoroqan..."

"Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)" dasrligida qo'shalaq so'zni "qo'shma so'z" (49-bet) tarzida uchratamiz. Rahimiy birikib kelgan ikki va undan ortiq ma'no bildirgan so'zni **"qo'shma so'z"** deb ataydi. "Masalan: **tort** blan **kol** so'zi birlashib, **Tortkol** shahariga ism bo'lgan.

Shokirjon Rahimiyning "qo'sh so'z" borasida olib brogan izlanishlari shuni ko'rstadiki, u leksikalogiya bo'yicha kam ish qilgan bo'lsada, so'z yasashning eng soda va xalqchil yo'lidan foydalanadi.

33. Morfologik qarashlari

XX asr boshlarida markaziy Osiyodagi ma'rifatchilik harakatida bir qator jadidchilar qatorida Shokirjon Rahimiy ham so'zsiz, porloq yulduz kabi ajralib turadi. U arab, fors, rus, turk tillarini bilgani holda, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o'zbek tilining turkiy tillar sistemasidagi o'rnini va bundan keyingi istiqbolini belgilab berishga harakat qildi. Avvalo, o'zbek (chig'atoy) tilining boshqa tillar sistemasida o'rnini, imkoniyatlari qanday? Bu mustaqil tilining boshqa tillar bilan munosabati qanday va bundan keyin qay tarzda rivojlanishi kerak? Shokirjon Rahimiy Sharq tarixi adabiyotida ikkinchi o'rinda turgan turk adabiyotining eng muhimi eng ko'pi, eng qimmatlisi chig'atoy

shevasidagi adabiyot ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun tilimizning ham turkiy tillar orasida eng yuqori mavqeda turishini aytadi.

Shokirjon Rahimiy, jonkuyar tilshunos sifatida 20-yillar til siyosati qozonida qaynadi va turkiy tillarni birlashtirish siyosatining oqibatlarini sezgan holda, har qaysi turkiy tilning umumiy jihatlari bo'lishi bilan birga, xususiy, o'ziga xos jihatlari ko'pligi, shuning uchun har qaysi turkiy til mustaqil ravishda rivojlanishi va o'z xalqiga xizmat qilishi lozimligini angladi. Shuning uchun ham o'zbek tilining bundan keyingi istiqboli haqida qayg'urdi. U 1929-yilda bo'lib o'tgan Til-imlo kanferensiyasining ikkinchi majlisida o'zbek tilining boyish yo'llari haqida ma'ruza qilgan Alaviy va Naim Saidlarning ma'ruzalaridan so'ng o'zining ham ba'zi fikrlarini va qarashlarini bildirib o'tadi. "Hozirg'i adabiy tilimiz mumkin qadar zamon bilan birga o'sib keladi, kengayadi. Agar atamalar ishlansa va bir birmuncha tekshirishlar orqasida hozirg'i adabiy tilimiz oliy maktablarga ham muvofiqlashadi."⁴⁷, deydi.

Shokirjon Rahimiy o'zbek tilining achchiq qismati, boshidan kechirgan turli xil sinovlari haqida shunday deydi: "Elimiz usmonli va shimol turklarining matbuoti bilan oshno bo'lib, ulardagi alipbo va imlo janjallari oz-moz quloqqa kira boshladi. Lekin ul chog'da chinlab maorip xodimlari oz bo'lib, ulardagi imlo masalasi yolg'uz taqlidchilik davridan yuqori oshmag'on edi. O'zgarishdan keyin har bir narsadan ilgari maorip ishlarida keng yo'l qo'yilib, bu yo'lda ishlovchi bir muncha yoshlar yetishdi. To'rt yilgi o'zgarish xiyla ko'zlarimizni ochdi. O'lkamizda millat va milliyat masalasi yaxshi yo'lga qo'yilib, bizga ham boshqalar qatorida o'z keragimizni ochiq aytib, yaralarimizga marham qo'yishta mumkinlik bo'ldi. Ko'zi ochiq kishilarimiz masalani to'g'ri yo'l bilan hal qila boshladilar."⁴⁸

Shokirjon Rahimiy o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, har bir morfologik hodisaning mohiyatini ifodalay oladigan qat'iy qoidalari yaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu haqda quyidagilarni yozadi: "Bu kun maorip ishida matbuot va adabiyotimizni yaxshi yo'lg'a qo'yishga, bularni yaxshi yo'lg'a

⁴⁷ Shokirjon Rahimiy. O'zbek adabiy tili. Qizil O'zbekiston. 1929-yil 17-may 114-son

⁴⁸ Shokirjon Rahim. O'zbek imlosi to'g'risida asoslar. "Qizil bayroq" 1922-yil,22-mart.

qo‘ymoq uchun yozu va qoidalarimizni tuzuk yo‘lg‘a qo‘yishg‘a ehtiyoj sezildi. Yozu va qoida ishlari o‘z-o‘zicha “alipbo va imlo masalasi”ga tiralib qoldi. Maorip xodimlari yoshlarning bir bo‘lagining pikri ushbu nuqtag‘a kelgach birlashib bir to‘da holig‘a keldi. Mana buning orqasida tarix bir to‘da imlochilar (xalq tili bilan aytganda, “ona tilchilar”)ni keltirib chiqardi. To‘g‘risi, boshqa millat orasida ko‘bdan buyon davom etgan yozu va imlo janjali chindan bizning oramizg‘a ham kelib kirdi.”⁴⁹ Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tili ko‘p shevali bo‘lganidan yangi o‘zbek adabiy tili qanday bo‘lishi, qaysi shevalarga ko‘proq tayanmog‘i lozim, degan muammo bu davrda muhim masalalardan edi. Shokirjon Rahimiy bu muhim masala bo‘yicha fikr yuritib, shahar shevalariga arab, fors tillari ta’siri kuchli ekanligi, shuning uchun bu shevalarga emas, balki qishloq shevalariga tayanish lozimligini bayon qiladi. Shuning uchun dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashula-qo‘shiqlarni xalq og‘zidan qanday talaffuz qilinsa, shundayligicha yozib olish, ularni sinchiklab o‘rganish va shu asosda ma’lum ilmiy xulosaga kelish lozimligini ko‘rsatadi. Shokirjon Rahimiy yuqoridagi fikrlari asosida singarmonizmli shevalar o‘zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo‘lishi kerak, degan xulosaga keladi. O‘zbek tilining fonetik sistemasi, morfologik tuzilishi haqida fikr yuritilganda ham ana shu bosh tamoyildan kelib chiqiladi.

Uning “O‘zbek tili II (ish kitobi)”, “Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)” nomli kitobi alohida qimmatga ega va u o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘zbek tilining fonetikasi sarf va nahvini izchil ravishda tavsiflovchi grammatik qo‘llamadir. Shu ikki darslik kitobdan o‘zga qolganlari topilmagan bo‘lsa-da, ularning 25-30-yillar ichida ko‘p marta nashr qilingani va bir necha yil davomi o‘rta maktablarda darslik sifatida qo‘llanilgani haqida ma’lumotlar yetib kelgan.

Har bir tilning morfologiyasida so‘z tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Shokirjon Rahimiy so‘z turkumlari, so‘zlarning grammatik kategoriyalari haqida izchil ma’lumot beradi. Shokirjon Rahimiy “O‘zbek tili II (ish kitobi)”, “Ozbek tili

⁴⁹ Jamolxonov Hasanboy, Umarov Abdusalom. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2017. 117-bet

darsligi (grammatika ham imla)” nomli kitobida so‘z haqida alohida to‘xtaladi. Olim so‘z tushunchasini alohida o‘rganadi. Va gapning bo‘laklarini “so‘z” deb ataydi. Shundan so‘ng gaplarni “**iki so‘zli, uch so‘zli va ko‘p so‘zli**” qismlarga ajratadi. Uning fikricha, “tugal bir fkr” dan tashkil topilgan so‘zlar to‘plamini “**gap**” deb ataladi. Va “Har qaysi gap so‘ngidan tavish pastrak chiqadi. Ikki gap arasi ayrilib turadi.”, deb ta’kidlaydi. Bu qoida yaratilganidan biroz mudadat o‘tib, ya’ni 1934-yilda yozilgan “Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)” darsligida “**Gap**” (3-bet) termini biroz o‘zgarishga uchraydi. Keltirilishicha, “Bir yaki bir munca sozlar blan anglatilgan ajrim ham tugal oj” “**gap**” deyiladi. Va har bir gapni “Nima nima qiladi.” kabi maxsus so‘roq bilan to‘ldiradi: **Vazifa 5.** Tubandagi gaplarni kocuringiz. Kop nuqtalar qojuloqan jerga munasib soz qojib, gapni tugallangiz. Har bir gapdan kejin nuqta qojungiz. Nima nima qiladi.

*Quş ucadi. Suv Arra Balta Beda At.... Cumcuq Pcaq....
Qajci..... maşina....*

(aqadi, tikadi, arralajdi, kesadi, kişnajdi, qijadi, ucadi, gullajdi, capadi.)

Shokirjon Rahimiy sifatga ta’rif berib o‘tirmay, u haqdagi dastlabki ma’lumotni beradi. U sifat haqida dastlabki ma’lumotlarni berar ekan, uni “kuchaytirgich bo‘laklar” (48-bet) deb keltiradi. “So‘zni kuchaytirishga sabab bo‘laturg‘an ana shunday bo‘laklarni (qap, ap, qip) kuchaytirgich bo‘laklar deyiladi. Ular so‘zlarga qo‘shilib yaziladi. Misal: aq-appaq, qar-qapqara, qzil-qipqizil kabi.” Shuningdek, -ish qo‘shimchasi yordamida ham yuqoridagi kabi ma’noli sifat hosil qilinishi ta’kidlanadi. Masalan, sarg‘ish, qizg‘ish, kukish, oqish, kabi.

Shokirjon Rahimiyning yuqoridagi fikrlaridan, so‘zga ham, gapga ham “ma’nodan shaklga” tamoyili asosida yondashganini payqash qiyin emas. Rahimiy so‘zga ma’no-moddiy asos-ohang – urg‘ulardan tashkil topgan murakkab bir butunlik sifatida yondashadi. U “so‘zning so‘z bo‘lishi uchun ma’no bildirishi, ohang va bosim bo‘lishi lozim” ligini ta’kidlaydi. Qo‘shimchalar “mustaqil ma’no, ohang va bosimga ega bo‘lmagani uchun so‘z bo‘la olmasligi”ni ta’kidlaydi.

Shokirjon Rahimiy ohang deganda har bir soʻzni “yoʻgʻon” va “ingichka”lik belgisiga ega boʻlishini tushunadi. Ana shu belgilar asosida soʻzga shunday taʼrif beradi: “Gapning boʻlaklari “soʻz” deb ataladi. Gaplar iki soʻzli, uch soʻzli va koʻp soʻzli boʻladi.”

Shuni taʼkidlash kerakki, Shokirjon Rahimiy feʼl haqida darsliklarida aniq bir qoidani keltirmaydi. Lekin u haqda oʻz maqolalarida koʻtarib chiqadi. “Bu kungi adabiy tilimizning nuqsonlari koʻb ishlashni talab qiladi. Masalan, kelar zamoni qatʼiy ifoda etgʻuvchi sigʻamiz yoʻq. holbuki, adabiy tilimizning bir rukni boʻlgʻon xorazm tilida “joq- jak” qoʻshimchalari borki, buni olish bilan bu kamchilikni yoʻqotish mumkin.”⁵⁰

Shunday qilib, Shokirjon Rahimiy “Oʻzbek tili II (ish kitobi)”, “Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)” nomli kitobida oʻzbek tilining morfologiyasini mumkin qadar izchil yoritishga harakat qiladi. Biroq bu yoʻlda ilk tajriba boʻlganligidan bir qator hodisalar talqinida yanglish fikrlar uchraydi, ayrim morfologik kategoriyalar esa oʻz talqinini topmaydi. Lekin bu kamchiliklardan qatʼiy nazar, mazkur darsliklarning yaratilishi oʻzbek ilmiy tilshunosligining shakllanishida, soʻzsiz, katta rol oʻynaydi.

3.4. Sintaktik qarashlari

Shokirjon Rahimiyning sintaktik qarashlari ham uning “Oʻzbek tili II (ish kitobi)”, “Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)” nomli darslik kitoblarida oʻz aksini topgan. Hali oʻzbek tili sintaksisning mundarijasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar sistemasi yuzga solinmagan bir davrda mazkur darsliklarning vujudga kelishi oʻzbek tilshunosligi tarixi uchun ham katta voqea edi. “Oʻzbek tili II (ish kitobi)” va “Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)” nomli darslik boshlangʻich maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan darsliklar boʻlib, ularda sintaksis va fonetika asosiy oʻrinni egallaydi. Shuning uchun ham sintaksisning asosiy oʻrganish birligi boʻlgan gap haqida maʼlumot berishdan boshlanadi. Gap maqomini belgilashda mantiqiy yoʻnalishning taʼsiri seziladi.

⁵⁰ Shokirjon Rahimiy. Oʻzbek adabiy tili. Qizil Oʻzbekiston. 1929-yil 17-may 114-son.

“Tugal bir fikrni anglatg‘an so‘zzlar to‘plamini “gap” deb ataladi. Har qaysi gap so‘ngidan tavish pastrak chiqadi. Ikki gap arasi ayrilib turadi.” (5-bet)⁵¹

Qizig‘i shundaki, gap haqida umumiy ma‘lumot berilgandan so‘ng, Shokirjon Rahimiy, punktuatsion ma‘lumotni berish lozim deb bilgan. Punktuatsion belgilar gapdan anglashilishi lozim bo‘lgan fikrning yozuvda to‘g‘ri ifodalanishi uchun yordam berishi. Shokirjon Rahimiyning shunday yo‘l tutishiga da‘vat etadi. Va “turush belgisi” (nuqta) haqida ma‘lumot beradi: “At miniladi. Sigir sag‘ildi. Taviqtuxum qiladi. Jazuvda gaplarni bir-biridan ajratib yaziladi. Har qaysi gap so‘zngida turush bilgisi (nuqta) qo‘yiladi.” (6-bet)⁵²

Rahimiy 5 ta tinish belgisi va ularning vazifasi haqida ma‘lumot beradi. Bular quyidagilardan iborat: nuqta(.), undov belgisi (!), so‘zroq belgisi (?), tutuq belgisi (’). Arab yozuvida tinish belgilarining izchillik bilan ishlatilmaganligini e‘tiborga olsak, Rahimiyning yozma nutqni me‘yorlashtirish uchun tinish belgilarining naqadar katta ahamiyati borligiga alohida diqqat qilganini tushunish qiyin emas.

Rahimiy gaplarni maqsadi va ma‘nosiga ko‘ra 1) so‘raq gaplar, 2) undav gaplar, 3) darak gaplar, 4) kuchaytirgich gaplarga ajratadi.

So‘raq gaplarni Shokirjon Rahimiy “So‘raqda tavush ko‘tarinqiraydi” deb keltiradi. Va “So‘raq bildirgan gaplarni” gaplarni “**so‘roq gap**” (30-bet) deb, “Soraq gap songida soraq bilgisi (?)” qo‘yilishini ta‘kidlaydi. So‘roq gaplar ustidan mashqlar keltiriladi.

Vazifa 2. Ikki qatardag‘i gaplarni o‘qib, tekshiringiz. Ularning qaysilari so‘raqli gap, qaysilari so‘raqsiz gap? Dastlab hama so‘raqni, undan so‘ng hama javabni yazib alingiz.

Turoqun maktabdami? Turoqun maktabda.

U oqujdimi? U oqujdi.

Uniñ oquşi jaxşimi? Uniñ oquşi jaxşi.

U udarnikmi? U udarnik.

⁵¹ Shokirjon Rahimiy. O‘zbek tili II (ish kitobi).1930.

⁵² Shokirjon Rahimiy. 1930. Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla). 1934.

“So‘raq va undav gaplardan boshqa gaplarni **darak gap** deb ataladi. Darak gapdan so‘ng nuqta (.) qojuladi.”

“O‘zbek tili II ish kitobi” darsligida ham gaplarning **So‘raq ham undav bilgisi (?,!)(7-bet)** haqida ma‘lumot berar ekan, “So‘raq so‘rag‘anda tavishimizni qattiq chiqaramiz.”, deydi. Va eng soda va oddiy qilib tushuntiradi. Buni mashqlar bilan mustahkamlaydi:

- Jazda kyndyz uzun voladъmъ?
- Jazda kyndyz uzun voladъ.
- Jazda kecəlar uzun voladъmъ?
- Joq! kecəlar qьsqa voladi.
- Kyzdəci?
- Kyzdə kyndyz va kechə varavar voladъ.

Vazifa: 13. To‘andagi so‘raqlarg‘a javab yazingiz:

Атънъz nimə?

Атаңzньн атъ nimə?

Nechə jaşda siz?

Тақн nechə jьl oqujsъz?

Yazuvda gap so‘ngida “undav bilgis” (!) qo‘yamiz. So‘roq gaplardan so‘ng gap oxirida “so‘raq bilgisi”(?) qo‘yiladi. (8-bet)

Shokirjon Rahimiy undov gapni shunday keltiradi: “Bir gapni bilgirtib anglatg‘anda tavishni qattiqchiqaramiz.” Demak, tovushning qattiq chiqarilishi bilan gapning ma‘nosi ham o‘zgarib ketar ekan. Rahimiy gaplarni bir-biridan keskin farqlaydi.

Tarkibida qip, ap, qip, kabi so‘zlar ishtirok etgan bildiruvchi so‘zlar ishtirok etgan va “so‘zni kuchaytirishga sabab bo‘laturg‘an”⁵³ gaplar “**kuchaytirgich gap**” hisoblanadi.

⁵³ Shokirjon Rahimiy. 1930. Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla). 1934.

Rahimiy “Gapda so‘zlarning bag‘lanishi” (50-bet) ni bilan, tag‘in, kabi, ham, ucun ga o‘xshagan gapdagi so‘zlarni bir-biriga bag‘layturg‘an so‘zlar ko‘magida amalga oshiradi. Va bu so‘zlarni **ko‘makchi** deb ataydi.

O‘zbek tilshunosligi tarixida sintaktik nazariya endigina shakllanayotganligi tufayli Shokirjon Rahimiy sodda gap bilan qo‘shma gaplar haqida so‘z yuritmaydi. Shunday qilib, o‘zbek tili morfologiyasi va sintaksisining fan sifatida shakllanishida Shokirjon Rahimiyning ham o‘ziga xos va mos bo‘lgan xizmatlari katta. U o‘zbek tili fonetikasi va sintaksisi haqida dastlabki ma’lumotlarni bergan. Shokirjon Rahimiyning “O‘zbek tili II (ish kitobi)” va “Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)” nomli darsliklarida bayon qilingan ko‘pgina ilmiy atama va tushunchalar bugungi o‘zbek tilshunoslari tomonidan hali deyarli ishlanmagan va o‘rganilmagan.

UMUMIY XULOSA

Shokirjon Rahimiyning ilmiy faoliyati va tilshunoslik merosi bilan tanishish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik.

1. Shokirjon Rahimiy til ilmi bilan, xususan, milliy alifbo va imlo yaratish yo'lida jiddiy shug'ullangan va bu sohada izlanishlar olib borgan olimdir. Uning tilshunoslik merosida o'z o'rnini topgan va o'zbek tili haqida boshlang'ich ma'lumotlar beruvchi hamda bolalarga saboq berish uchun mo'ljallangan darsliklari bor. O'sha davr bolalarining tayyorgarligi va tasavvurlarini hisobga olgan holda "Sovg'a" (1919), "Alifbo darsligi" (1922) kabi alifbo darsliklarini yaratdi. Shuningdek, kattalarning savodxonligini oshirishga qaratilgan "Kattalarga o'qish" (1920), "Kattalar yo'ldoshi" nomli alifbosini tuzadi. Bundan tashqari "Kattalar alifbosi" (1927), "Savod" (1930), "O'zbek tili. Ish kitobi" (1932) "O'zbek tili darsligi. Grammatika ham imla" (1934) "O'zbek maorifi" (1923) kabi maxsus darsliklar va o'quv qo'llanmalar ham yaratadi. Bu darslik, kitoblar millat farzandlariga ta'lim-tarbiya berishda ko'p yillar xizmat qildi.

2. Shokirjon Rahimiyning tilshunoslikka doir ilmiy-nazariy qarashlari amaliyot bilan bevosita bog'langan. U faqat darsliklar yozish bilan cheklanib qolmay, o'zbek tili masalalari haqida ma'ruzalar ham o'qigan.

3. Biz tekshirgan davrning eng muhim vazifalaridan biri tilimizning nazariy qonun-qoidalariga ega bo'lgan imloni yaratish bo'lsa, yana biri o'zbek tilidagi ona tili darsliklarini va alifbo kitoblarini yaratish edi. Shokirjon Rahimiyning "Sovg'a" va "O'zbek alifbosi", "O'zbek tili ish kitobi" darsliklarini yaratishi bu vazifani hal qilishda katta hissa bo'lib qo'shildi. Bu asarlar o'sha davrdagi shakllanayotgan o'zbek tilshunosligi fanining aniq qiyofasini ko'rsatuvchi asarlardir.

4. Uning o'zbek adabiy tilini yaratish yo'lida ilgari surgan ba'zi fikrlari nafaqat o'sha davr, balki hozirgi o'zbek tilshunosligi fani uchun ham ilmiy qimmatga ega. Hozirgi kun uchun ahamiyati kam tuyulgan qarashlari, tasviflari esa o'zbek tilshunosligi tarixi uchun nihoyatda qimmatlidir. Shulardan kelib chiqib, Shokirjon Rahimiy o'zbek tili qoidalarini yaratuvchilarudan asoschilaridan biri bo'lgan deyish ham mumkin.

5. Shokirjon Rahimiy arab yozuvini isloh qilish va milliy tilimizning talaffuz qonuniyatlariga moslashtirish maqsadida katta ishlar qildi. Isloh xususida o'zining asosiy tezislarini ilgari surdi, sof o'zbekcha tovushlar uchun maxsus belgilar taklif qildi va o'zi amalda qo'lladi. Arab yozuvini soddalashtirish - milliylashtirishda Fitrat, Elbek, Munavvar Qori, Ashurali Zohiriy, Qayum Ramazon kabi ijodkor-olimlar bilan hamkor? Hammaslak bo'ldi.

6. 20-yillarning o'rtalarida boshlangan lotinchilik harakati mazkur alifboni qabul qilish bilan tugadi. Bu vaqtda o'zbek tilining milliy tabiatiga, tovushlar sistemasiga tilimizning ichki imkoniyatlariga alohida e'tibor berilgan. Fitrat, Munavvar Qori, Shokirjon Rahimiy boshliq tilimiz jonkuyarlari o'sha vaqtda turkiy tillar uchun umumiy qonuniyat – singarmonizmga juda ahamiyat berdilar, ushbu qonuniyatning o'zbek adabiy tilidan surib chiqarilishiga ma'lum davrgacha (1934-yilgacha) kurashdilar.

9. Shokirjon Rahimiy milliy tillarning rivojlanish yo'llarini to'g'ri ko'rsatdi.

10. Shokirjon Rahimiy butun umri davomida til ertasi uchun qayg'urdi, milliy til va milliy yozuvimiz bo'lishi uchun tinmay kurashdi. U yozuvimizning til tozaligi uchun kurashar ekan, tillarning o'zaro aloqasini inkor qilmaydi.

11. Shokirjon Rahimiy o'zbek tilining ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini yaratar ekan, birinchidan, milliy til tabiatini hisobga olgan bo'lsa, ikkinchidan, o'zbek tilini turkiy tillar tarkibida o'rgangan.

Umumiy xulosa qilib aytganda, Shokirjon Rahimiyning tilshunoslik merosi o'zbek tilshunos-olimlari tomonidan o'rganilishi zarur bo'lgan va salmoqli bir tadqiqotning paydo bo'lishiga zamin yaratadigan o'lmas ilmiy merosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Alohida adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston. 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008, 17-bet.

II. Ilmiy tadabiyotlar

Darslik, qo‘llanma va risolalar

4. Abdullayev Y. Hamrohim.- T.: O‘qituvchi,1996
5. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. 1-kism. -T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi , 2004.
4. Jamolxonov H., Umarov A. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi (I kitob), -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2017. -456-b.
5. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi .T.,O‘zbekiston, 2002. 2-kitob.

Dissertatsiyalar

6. Tog‘ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. Filol.fan. nomz... diss. -T., 2005.
7. Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik me'rosi. Filol.fan. nomz... diss. -T., 1993.

Ilmiy maqolalar

8. Abdullayev Y. Moziy va yangi alifbo // «O‘zbekiston ovozi»,- 1995,- 24-yanvar.
9. 11. Bashir Z. Kattalarga yo‘ldosh: (Shokirjon Rahimiyning savodsizlikni bitirish maktablari uchun tuzilgan «Kattalar yo‘ldoshi» nomli alifbo kitobi to‘g‘risida) // Turkiston. – 1924. – 23 iyul.
10. Jamolxonov H. Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek alifbosidan lotin grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tishning asosiy sanalari // Turkiy

- tillarning taraqqiyoti muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T.: Fan, 1995.
11. Jomonov R. Fitrat imlo qoidalarining zarurati haqida // «Til va adabiyot ta'limi»,- 1998.- 6-son.
 12. Mallin. Lotin alifbosi tegrasida: (Shokirjon Rahimiyning «Lotinchaga ko'chamiz» nomli maqolasi munosabati bilan) // Qizil O'zbekiston. – 1926. – 29 avg.
 13. Muxtorov A. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. –T.: "O'qituvchi", 1995, 23-b.
 14. Orif. Yangi alifbedagi mas'uliyatsizlik: [Shokirjon Rahimiyning yangi alifbeda chiqqan «Kattalar alifbesi» kitobi haqida] // Qizil O'zbekiston. – 1928. – 21 okt.
 15. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – T.: "Universitet", 1996.
 16. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va uzbek tilshunosligi. – T.: "Universitet", 1997.
 17. Tohiriy Ibrohim. Alifbo va o'qish kitoblarimiz: (O'rta Osiyo Davlat nashriyoti tomonidan 1924 yilda 4-qatla nashr etilgan Shokirjon Rahimiyning «Sovg'a» alifbo kitobi haqida) // Turkiston. – 1924. – 26 noyab.
 18. Tohiriy Ibrohim. Ko'rlikmi yo teskarilikmi?: (Shokirjon Rahimiyning «Sovg'a» alifbo kitobiga oid) // Qizil O'zbekiston. – 1925. – 20 may.
 19. Shokirjon Rahimiy. O'zbek tili ish kitobi II. O'znasr Toshkent – 1930.
 20. Shokirjon Rahimiy. 1930. Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla). 1934.
 21. Shokirjon Rahimiy. Til va imlomiz // Ishtirokiyun. – 1920. – 30 noyab.
 22. Shokirjon Rahimiy. Yangi alifbo butun Sho'rolar Ittifoqi doirasida bir yo'lga tushdi: (Lotin alifbosi masalasi) // Qizil O'zbekiston. – 1927. – 25 iyul.
 23. Shokirjon Rahimiy. Behuda janjal emas, ish va tajriba majlisi: (Turk yangi alifbe Markaziy qo'mitasining 2-plenumi munosabati bilan) // Qizil O'zbekiston. – 1928. – 16 yanv.
 24. Shokirjon Rahimiy. Yangi alifbe tezda yuzaga chiqadi // Qizil O'zbekiston. – 1928. – 8 yanv.

25. Shokirjon Rahim Yangi alifbo maslahat majlisida nima ishlar qilindi?: (Yangi olingan shakllar, yangi o‘zbekchaga qabul qilingan cho‘zg‘ilar haqida) // Qizil O‘zbekiston. – 1926. – 19 iyul.
26. Shokirjon Rahim Yangi o‘zbek alifbosi tevaragida: (Shokirjon Rahimiyning «Lotinchaga ko‘chamiz» maqolasi munosabati bilan yozilgan
27. Mallinning «Lotin alifbosi tepasida» nomli maqolasidagi so‘roqlarga Shokirjon Rahimiyning javobi) // Qizil O‘zbekiston. – 1926. – 14 okt.
28. Shokirjon Rahimiy “Sovg‘a”lar takomil qiladir” maqolasi (“Alanga” jurnali, 1927 yil, 6-son).
29. Yangi asarlar: «Jonli tovushlar»: [Shokirjon Rahimiyning bolalar uchun yozgan «Jonli tovushlar» nomli alifbe kitobi haqida] // Qizil O‘zbekiston. – 1928. – 28 avg.
30. G‘urt. Yozmaymen: (Shokirjon Rahimiy to‘g‘risida) // Turkiston. – 1923. 29 sent.
31. Щербак А.М. К Истории узбекского литературного языка древнего периода. // Sb. "Академику В.А. Гордлевскому". – М.; 1953, 323-б

III. Til va yozuvga oid qonun, farmon va qarorlar

32. 1921-yil yanvarida bo‘lgan birinchi O‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyi chiqargan karorlari.- T.: «Turqdovnashr», 1922.
33. 1923-yil, 18-oktyabr. Turkiston Jumhuriyati Maorif Komissarligining Turkiston o‘zbeklarining imlolari to‘g‘risidagi bergan buyrug‘i (buyruk №48). - T., 1923.
34. 1929-yil, 15 – 23-mayda Samarqandda bo‘lib o‘tgan Respublika til va imlo konferensiyasi qarorlari. - T.: O‘zdavnashr, 1930.
35. O‘zgarishdan ilgari yerli xalq orasida o‘lkani tanish: (O‘zbekiston ilmiy konferensiyasida o‘rtoq Sh. Rahimiy dokladi): (1919-1924 yillarda o‘lkani tanish, osori atiqqa, qo‘lyozma va nodir asarlarni o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlar to‘g‘risida) // Qizil O‘zbekiston. – 1924. – 29 dek.

ILOVA

Turkiyot qurultoyig‘a borg‘on o‘zbek, boshqurt, qozoq, qirg‘iz vakillaridan bir turkum



Birinchi qator, chapdan o‘ngga: 1.Nazar To‘raqulov, 2.Shokirjon Rahimiy, 4.Ashurali Zohiriy, 6. Elbek (Mahriq Yunusov)

Ş. RƏHİMII

ӨZBEK TILI

II

(IŞ KITABİ)



ӨЗНƏŞР
ТАШКЕНТ—1930

Ş. RƏHİMII

О.Р.У.К.Г.И.Б.Ур. №3.

Инд. № 222702.

ЎЗБЕК ТИЛИ

II

(Iş kitabı)

Tyzyk jazuv, ʻmlla, ʻnşa, til qabdalary ʻrgənyv və
tilni acuv jolyda II-inci oquv jylboʻya qaratyv tyzətilgən

II-inci basması.

NI 7099
01

Пров. 1939 г.

ЎЗНӨŞР

Ташкент 1930

Ўзбек ҳарфлари

Aa Bb Cc Cc
Dd Ee Ff Ff
Gg Gg Hh Ii
Jj Kk Ll Mm
Nn Nn Oo Oo
Pp Qq Rr Ss
Ss Tt Uu Vv
Xx Yy Zz Zz Cc

Rozoqar quramьz,
Bajlar yjini jьqьv vuzamьz.
Bilim alamьz
Biz jьksələmiz
Bu özgərişni
Saqlav qalamьz

Ynli tavьş-hərflər ikigə vəlinədi. Joqan ynlilər, inickə ynlilər. Ajtьlqanda aqьz arqasьdan cьqa turqan ynlilər joqan ynlilər voladь. Ajtqanda aqьz aldьdan cьqa turqan ynlilər inickə ynlilər voladь. Joqan ynlilər 4: a, o, u, ь, inickə ynlilər: ə, e, y, i, e.

Ynli hərflər:

Joqan	ingickə
a	ə
u	e
ь	y
o	i
	e

11. Ynsiz hərflər.

Vəzifə 40. Təvəndəgi şi'rni dəftərinizgə köciriniz. Sonьdan bunda volqan sezlərdəgi ynsiz hərflərnin astьqа cьzьnьz.

Vəzifə 46. Şu hikəjəni jazьnьz, sөz arasьdь kelgөн „q, q, k, g“ lərnin astьqа cьzьnьz.

Aqьllь kişi.

Bir kişi tyşidə noxud şerəkni kərди. Unь aşamaqqa qaşьqь joq edi. U kişi ertəsi jatar caqьda əzi bilən birgə bir qaşьq həm alьv jatdь, ləkin, bu kecə noxud şerəkni kərmədi.

24 ynsiz hərflərdən 2 si (q, q, joqan 2 si inickə (k, g). Qalqanlarь çajьqа qarav joqan və çajьqа qarav inickə voladь.

Ynsiz hərflər:			
joqan		inickə	
q		k	
q		g	
həm joqan həm inickə			
b	h	η	t
c	j	p	v
ç	l	r	x
d	m	s	z
f	n	ş	z

1794
226

Ş. RAHIM

OZBEK TILI DARSLIGI

GRAMMATIKA ham IMLA

BIRINCI BOLUM

BASLANOJIC MAKTABLARNIN
1—2 nci SINFLARI UCUN

Oz. SSÇ DAVLAT NAŞRIJATI
TAŞKENT—1934

معاريف هفتدسى.

ت. گ. ب. (مارت ۰۲ - ۲۸، ۱۹۲۳ يىل)

Изд. № 10609.

ئوز بىك معاريفى

نىك

ئوتكەندەگى وە حاضرغى حالى.

NI $\frac{5480}{0}$ $\frac{4}{158}$

توزوچى: ش. رەدەيم

Пров. 1933 г.

تورکستان دولت نەشرىياتى تاشکند ۱۹۲۳ يىل.

Туркестанское Государственное Издательство

Ташкент 1923 г.

معاريف ميفتاسى.

مارت ۲ - ۲۸، ۱۹۲۲ (بىل)

Г. Б. (مارت ۲ - ۲۸، ۱۹۲۲)
№ 10809

ئوز بىك معاريفى

نىك

ئوتكەندەگى ۋە ھاضرغى ھالى.

NI 5480 118 3/158

توزۇچى: ش. رەھىم

Пров. 1923

ئورگىستان ھولت نەشرىياتى تاشكەند ۱۹۲۳ بىل

Туркестанское Государственное Издательство
Ташкент 1923 г.

118

بو رىساللاردا ھولانغان ياڭلىشلار:

بىر بول	بىر بول	بىر بول	بىر بول
۸ ۲	بىر - ئىككى	بىر - ئىككى	بىر - ئىككى
۱۱ ۴	ئاسترا ئومۇمىي	ئاسترا ئومۇمىي	ئاسترا ئومۇمىي
۱۲ ۴	قانتۇ	قانتۇ	قانتۇ
۱۶ ۴	قاسد	قاسد	قاسد
۱ ۵	ئىدىلە	ئىدىلە	ئىدىلە
۱ ۵	ئىسكى نامادان	ئىسكى نامادان	ئىسكى نامادان
۵ ۵	يول ئۆزى ئىبارت آر	يول ئۆزى ئىبارت آر	يول ئۆزى ئىبارت آر
۱۵ ۵	زور	زور	زور
۱ ۶	داغان	داغان	داغان
۲ ۶	ئىككى	ئىككى	ئىككى
۱۹ ۶	ھەمچىلەر	ھەمچىلەر	ھەمچىلەر
۸ ۸	موندال باشلار	موندال باشلار	موندال باشلار
۱۰ ۸	ئەمىرىك	ئەمىرىك	ئەمىرىك
۱۲ ۸	غولمىلى	غولمىلى	غولمىلى
۱۶ ۸	كاتبى	كاتبى	كاتبى
۰ ۴ ۹	باغىدان	باغىدان	باغىدان
۲ ۱۱	«ھوز مىلت»	«ھوز مىلت»	«ھوز مىلت»
۲ ۱۲	بىگىلەر	بىگىلەر	بىگىلەر
۲ ۱۲	قازدا	قازدا	قازدا
۱ ۱۴	ئىل ئارلىدا	ئىل ئارلىدا	ئىل ئارلىدا
۱۰ ۱۴	ئىسقىلىك	ئىسقىلىك	ئىسقىلىك

مەتبوعات ۋە تەدبىيات

كەنتەلەرگە يولداش

ياقندا بولغان ساوئىزلىقنى بىر شى قورولتايپىدا كورلىگەن ئەحوالىگە قاراغاندا، ساوئىزلىقنى بىر شىگە ياندا كەنتە نوسوق بولغان مەسئەللەرنىڭ بىرى ياشنى تاييارلانغان. او قوتتوم چىلارنىڭ ئزلىشى بولسا، ايسكېچىسى كەنتەلەرنى او قرتش اوچون تونۇشكەن دەرسلىكلەرنىڭ يوقلىشىمىز. ۲۳ يىللىك تەجرىبە چاق كورسەتتىكم، توركستان اولكەسىگە ساوئىزلىقنى بىر شى توغرىسىدا سەرف قىلغان چوۋە كوپ كۈچلەر، بو كۈنگەچە كوپ قەنەتە لەنورلىك نەتىجە يېرە آلامادىلار. ساوئىزلىقنى بىر شى اوچون اشچى-دېھقان او يوشمەلەرى آراسىدا آچقان چوۋە كوپ مەكتەپلەر ۋە كورسلا رە ۹-۱۰ آى ۋە ھەتتا بىر يىلدىن آرتق داوام قىلما لارنى ھالدا تونۇشكەن ساوئىزلىق آداملارنى چىقارما لىمادىلار. بونىڭ ئەسلىسى سەيپىلەرى بو قارىدا كورسەنلەرى، ياخشى قىنا تەجرىبەلىك ۋە استىدالىق او قوتتوچىلار ھەم اولزىلارنىڭ قۇرۇق كوچ سەرف قىلىش لارنى بىلەنكىنە آرتق نەتىجە كورسەتە آلامادىلار.

كېيىنكى ۋاقتدا، توركستان ساوئىزلىقنى بىر شى مەركەزى مەسئەللەدە كەمىيەسى تامانىدىن نەشر قىلغان «كەنتەلەر يولداش» ناملىق ئەسەر شول اھتىيا جىمىزنى تولدۇرىش اوچون بويوك بىر ياردەم بولدى.

قىشلاقلاردا

مەعارىف

آتالار بىل باغلادىلار. زەنگى آنا قىشلاغىنىڭ بالا آتالارى مەجلىس قىلپ او قش ۋاقتىغا چا. ۳۰ بالاقى بىر مەكتەپ تاييارلاش ۋە كېرەك ياراتق، او قش، يازش ئەسبابلەرى ھازىرلاش اوچون سوز بېرىدەر. ھازىردا باشلاپ ۱۰۰ كىشىلىك ساوئىزلىقنى بىر شى قورسى آچقاندا، بو قورسقا بىر ئىچى نەو بەتدە ۲۵ تە ساوئىز رادىس ياشلاردان، ۲۵ تە فرە ئەزىلەر بىدەن، قانداق قوشچى - بىتاراق ئەزىلەردىن قەبول قىلىشنى لازىم تاپىدۇلار.

مەعارف اوچون ھەم كەت

تاشقۇيەزى تاشقۇلاق آوولداش. قۇنگەچە يالغز بىر مەكتەپ داوام ايتىپ كىلدى، قەتەت بىر كىنە مەكتەپ خەلققە كىنايە قىلمايدى. ايسون ايسىدا آوول خەلقنىڭ غومومى مەجلىسى بولوپ، اوچ مەكتەپ بىناسى سالماققا قەرار قىلدى. قەرارنى يوزەگە چىقارماق اوچون اوچ كىشىدىن غىبارەت كەمىيە تۈزلىدى. كىشلەرگە موۋەققەت تېلەيمىز.

موۋەققەت موھەررىر:

رەھىم انعام.

ش. رەھىم اور تاق كىتابنى يەنگى - كىنە ساوئى چقان اشچى، دېھقان - لارغا موۋافىق بىر تەك ۋە بىر ئوسلوبدە يازغان. ھەر بىر مەسئەلە رەسەلەر ۋە دىيا گراممىلار بىلەن كورسەتلىگەن. ئەسەردە كەمچىلكلەر ۋە يېتىشمەسلىكلەر ئەلبەتتە بار. لېكىن، موھم بىر ۋاقتدا ۋە كوبرەك او زىنىڭ ياخشى تامانى بىلەن بىر ئىچى مەرتەبە مەيدانگە تاشلانغان بو ئەسەرنى ھازىرچا تەفدىل اېنىشەن باشقا عىلاج يوق. او مەيدىم چوۋە كەنتەدركىم، ش. رەھىم اور - تاققا ارخىداش، چىن اخلاسىنى ۋە ھەمىيىنى سالىپ دەرسلىكلەر تەرتىپ قىلغۇچى اور تاقلار بىز نە مەيدانگە تاشلانورلار. مەنەشول ۋاقتدا اولەرنى بىر - بىرىگە سالىدۇرۇپ، كەمچىلكلەر رېنى ھەم كورسەتەتەتە مەتبوعاتىدە علمى بىر باب آچارمىز.

«كەنتەلەر يولداش» ياخشى قەلغازدا، آچق ھەرلەر بىلەن بىسلىغان. كوپ دەرسلىكلەرنىڭ يامان قانداغىدا بىسلىپ، ھەرلەرنىڭ او قى آلماسلىق ھالدا بولىشى كوپ او قوتتوچى ۋە او قوتتوچىلار بىزنى قىزار ايدى، شونىڭ اوچون بو مەسئەلە ھەم چوۋە موھم دىب بىلەمىز.

ز. بەشىر.

تورکستان جومھورىيەتى مەركەزى خەلق خوجالىشى شوراىنىڭ خام قىشقا تاييارلاش ئىدارىسى

«اوپسىوزاگ»

ايدارەسى ۋە باش كانتورى تاشكەنتدە.

ھەر خىل مەيداندىن چىققان خام ماللار، مەسەلەن بېرىك ۋە مەيدە تېرىلەر، سېگىر ۋە قوئى اېچكەلەرى ھەر خىل پۇستون تېرىلەرى، آت يانى سازلار ئاندا.

چون «تور كىشىست» كانتورى آرقالى تاييارلانادۇ.

تورکستان جومھورىيەتىدەگى شوغەلەرى:

تورکستان، آفەپت، غارالى، چىكەنت، آلبىيا آنا، مەرسى، پىشەك، توقماق، قارقار، ياركەنت، گاوريوۋىكە، لېپسە، نارى، آنا آنا، جىزاق، اوئى، سەمەرقەنت، پانناراتسك، چەلال آباد، مەرو، تاشتا بازار، تور تىكول، ھوجەنت، قوقان، ئەمەتگەن، نەرخان، ئەنخەن، ۋە تورا تېبەدە.

۲۶ تە اېچكە ز اوۋدى بار:

بوخارا جومھورىيەتىدە «بوخسىوزاگ» كانتورى مال ھازىرلايدۇ. خام ماللار س.س.س.س. بازارلاردا ساتىلادۇ. چىت ايللەرگە ئېچكە ۋە پۇستون تېرىلەرى ساتىلادۇ. مەركەزى كانتورنىڭ اىبارلاردا مەرواقتا ھەر خىل تېرىلەر، شونىڭ اېچىدە بوزوق تېرىلەر ھەم ھازىر.

شوغەسى: مەسكەدە چىركاسكى بىر يىرئولكە ۷ نچى نومۇر. ۋە ئالەتى مەشھەد (ايران) دە.

ايدارەنىڭ آدرىسى: مەمەرسكى كوچە، ۲۵ نچى مەوليدە. تېلېفون نومۇرلەرى: ۱۸ - ۱۳، ۷ - ۱۱، ۳۵ - ۴، ۵۴ - ۳. ۋاقتىچا كانتورى ئىزنى يەرمەنكەسىدە (۱۱ نچى قاناردا) ايدارە.